

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

RO‘ZMETOVA MOHIRA

ROJIY XORAZMIYNING BADIY MAHORATI

Mutaxassislik: 5220100 Filologiya (o‘zbek filologiyasi)

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

URGANCH-2012

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I. Rojiy Xorazmiy she'riyatining janr ko`lami.....	14
1.1. Rojiyning g`azal, mustazod, ta'rix va qasidalar haqida	15
1.2. Rojiy musammatlari.....	28
II. Rojiy Xorazmiy she'riyatining badiiyati haqida.	
2.1. Rojiy Xorazmiy she'rlarida faol qo`llanilgan badiiy san'atlar haqida ..	27
2.2. Rojiy lirikasi vazni haqida.....	32
Xulosa	46
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar	48

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik arafasidagi tarixiy jarayonni ko‘z oldimizga keltirar ekanmiz, 1989- yil 21- oktyabrda qabul qilingan “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun istiqloqlarning ma‘naviy poydevori bo‘ldi, deb bimalol aytishimiz mumkin. Ushbu Qonun millatning tarixiy xotirasini uyg‘otishda muhim tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. “Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda¹” deganda Yurtboshimiz mutlaq haqdir. Mustaqillikni qo‘lga kiritish millatning har bir vakilidan beqiyos xizmatlar talab qilsa, uni mustahkamlash ham shu qadar mas‘uliyatlidir.

Mustaqil O‘zbekistonimiz zamini, shu zaminning bir qismi bo‘lgan qadimiy Xorazm vohasi jahon sivilizatsiyasiga muhim hissa qo‘shgan yuzlab daholar beshigini tebratgan. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, Xorazm va Xiva zaminida yashagan Pahlavon Mahmud, Sulton Uvays, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Bahouddin Valad va uning buyuk farzandi Jaloliddin Rumiy, Abul Qosim al-Xorazmiy, Ismoil Jurjoniy, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Safo Mug‘anniy, Chokar, Sheroziy, Hojixon, Bola baxshi kabi o‘nlab va yuzlab allomalar, shoir va san’atkorlar nomini biz bugungi avlod vakillari cheksiz ehtirom bilan tilga olamiz va boshimizga ko‘taramiz².

Prezidentimiz I.A.Karimovning «Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch» kitobida shunday fikrlar keltiriladi: «Agarki mendan, hozirgi kunda ma‘naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo‘yish kerak, deb so‘rasa, men, avvalambor, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o‘zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 3.

² Karimov I. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi // Xalq so‘zi, 1997 yil 21 oktabr soni.

diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashash zarur, deb javob bergan bo'lardim».

«Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, qo'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi».

O'zbek millati dunyoning barcha xalqlariga ham nasib etavermagan katta ma'naviy merosga ega. “Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib bugun kutubxonalarimiz xazinalarida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir”¹. Ana shunday tunganmas beqiyos

¹ Karimov I. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi // Xalq so'zi, 1997 yil 21 oktyabr soni.

ma'naviy xazinaning bir qismini o'tmish voqeligini real yoritib berishda madxal vazifasini o'tagan tarixiy asarlar, ularning matniy tahlili tashkil qiladi.

Rojiy Xorazmiy lirikasi Xiva adabiy muhitining ajralmas bir bo'g'ini sifatida alohida ahamiyatga ega. Shu ma'noda shoir lirik merosini tadqiq qilish dolzarblik kasb etadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Xiva adabiy muhitida o'z ovozigaga, o'z uslubiga ega bo'lgan ijodkorlar ko'p. Ana shunday shoirlardan biri Muhammad Yusuf Rojiy Xorazmiy hisoblanadi.

Qomusiy allomalarga beshik bo'lgan Xorazm tuprog'i jahonga ko'plab daholarni, ulkan so'z san'atkorlarini bergan.

O'zbek adabiy harakatchiligida asosiy o'rinlardan birini egallab kelgan hamda ko'plab iste'dodli so'z san'atkorlari kamol topgan bu ma'rifat maskani – Xiva adabiy muhiti XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib o'zining haddi a'losiga ko'tarildi. Ijodiy jarayondagi bu ko'tarinkilik Munis boshlab bergan keng qamrovli adabiy jarayonning uzviy davomi va yuksak cho'qqisi bo'ldi. “Munis XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmi o'rtalarida davom etgan progressiv adabiy muhitning yetakchi shoirlaridan edi. Shuning uchun ham u o'sha davrda va undan keyin davom etgan adabiy muhitga va uning vakillari ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sirni jumladan, Ogahiy, Komil, Rojiy, So'fi, Bayoniy va boshqalar ijodida yaqqol ko'ramiz”¹.

O'z doirasida ko'plab shoirlarni uyushtirgan Xiva adabiy muhiti ijodiy markaz sifatida keng yo'nalishdagi ijodiy jarayonga boshchilik qildi. Davr adabiy hayotining rang-barangligi, an'analar va yangiliklar uyg'unligi bu davrda ijod sahnasiga chiqqan qalam sohiblari faoliyatida ham aks etdi. Ogahiy, Komil, Rojiy, Tabibiy, Devoniy, Ojiz, Munshiy, Ziyrak, Feruz, Avaz kabi ko'plab ijodkorlar Munisga izdoshlik qildilar.

Xiva adabiy muhitining bu davrdagi umumiy qiyofasini rus sharqshunos olimi V.V.Bartold shunday baholagan edi: “Biz XIX asrdagi Xiva va Qo'qon

¹ Ayyomiy. O't chaqnagan satrlar. – T.: Adabiyot va san'at, 1983. – B. 67.

xonligida madaniy, adabiy (tarixiy) va ayniqsa obodonchilik sohasida Buxorodan ko`ra jonli faoliyatni ko`ramiz”¹.

Muhammad Yusuf Rojiy Xorazmiy XIX asrda Xorazm hukmdorlari Olloqulixon (1825 - 1843), Rahimqulixon (1843 - 1846), Muhammad Aminxon (1846 - 1855), Sayyid Muhammadxon (1856 - 1865) va Muhammad Rahimxon Soniy (1865 - 1910) xonlik qilgan davrda yashagan shoir bo`lib, mazkur shohlardan keyingi uchtasi bilan adabiy aloqada bo`lgan edi. Adabiyotshunos V.Mo`minovning taxminiga ko`ra, Rojiy Xorazmiy 1825 yilda tug`ilib, 1900 yilda vafot etgan va u Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nodim, Komil va Avaz O`tar qatoridagi shoirdir².

Rojiy taxallusli shoirlar Navoiygacha bo`lgan tazkiralarda va undan keyingi uch asr mobaynida, ya`ni XVIII asrgacha bo`lgan arafada o`zbek adabiyotida uchramaydi. Ammo Ozarbayjon va fors adabiyotida XVII asr oxirida ikkita Rojiy taxallusli shoir yashab ijod etgan.

Rojiy so`zi arabcha so`z bo`lib, ikki ma`noni ifodalaydi:

1. Asl ma`nosi –qaytmoq.
2. Majoziy ma`nosi –umid qilmoq³.

Qaytmoq –Yaratgan huzuriga qaytishni ifodalasa, umid qilmoq hayoti davomida gunoh qilmay yashashga umidni ifodalaydi.

Adabiyotshunos I.Ostonaqulov bu haqda shunday yozadi: «Rojiy taxallusining lug`aviy ma`nosi «umidvor» , umid qiluvchi» demakdir.

Tasavvufda «Iymon xavfu rijo o`rtasida» degan naql bor. Ya`ni banda o`z amalida gunoh ish sodir bo`lmadimikin degan andishada Ollohdan qo`rqmog`i kerak, shu bilan birga qilayotgan yaxshi amallari, savobli ishlari evaziga Ollohdan ajr kutib, umidvor bo`lib yashamog`i kerak. O`ta qo`rqib, halokatga uchrash ham maqbul emas, o`ta umidvor bo`lib beparvo bo`lish, emin bo`lish ham maqbul emas. O`rta holda qo`rquv, o`rta holda umid bo`lmog`i kerak. Demak, qo`rquv

¹ Bartold B.B. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Soch. T. II. Ch.I. – M.: Izd.Vost.lit. 1963. – S. 292.

² Mo`minova V. O`zbek demokratik adabiyotida lirika. – T.: Fan, 1979. – B.81.

³ A.Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati. – T.: Fan, II jild, 1983. – B.626.

ham iymon belgisi, umidvorlik ham iymon belgisi. Rajo, ya'ni umid qiluvchilarning sarvari YAhyo Maoz tariqatini xush ko`rib, o`ziga Rojiiy yoki Rajoiiy taxallusini olib ijod qilgan shoirlar ko`p bo`lgan. Chunonchi, kirmonlik, xorazmlik, buxorolik, shahrisabzlik, qo`qonlik, andijonlik Rojiylar yashab o`tgani ma'lum. Ular bir –birlaridan farqlanib turish uchun, tug`ilib o`sgan diyorlari nomi taxallus bilan egizak holda qo`llangan»¹.

Rijo tasavvufdagi 9 maqomdan birining nomi. So`fiyona tariqat bosqichida solikning ruhiy yuksalishi uchun to`qqiz pog`onalik maqomlar majmuasi muayyanlashgan. Shulardan yettinchi zina rijodir. Bu zina umidvorlik zinasi. Solik katta bir ishonch bilan oldinga intiladi. U umid qiladiki, boshqa xavf –hatarlarga yo`liqmaydi, endi balo – qazolardan qo`rqmaydi, ularni qat'iylik bilan bartaraf etib, o`z maqsadiga erishadi. Ya'ni u gunoh qilish xavfidan qutulganiga qat'iy ishonadi. Ishonch unga quvvat va jasorat baxsh etadi. Shu tariqa, Rojiiy so`zi ishonch, umid, baxt, qat'iylik, maqsadga erishuvchi ma'nolarini ifodalab, tasavvufona rijo zinasi sifatida toza so`fiyona ohang kasb etgan. Mazkur shoirlar taxallusda qo`llagan ma'nosi ham majoziy ma'nodagi umidvorlik mazmunini ifodalaydi.

Xorazm adabiy muhitining bilimdoni Ayyomiy –Y.Yusupov «Xorazm shoirlari» monografiyasida Rojiyning 1880- yilda ko`chirilgan va Xiva tarix muxeyida saqlanayotgan devonidagi:

Rojiyo, o`tdi yigitlikda yigit deb umring,

Qirqdin oshti yoshing, emdi ne darkor yigit,

deb yakunlanadigan «Yigit» radifli g`azalining maqta'idagi «Qirqdin oshti yoshing» jumlasiga e'tiborni qaratib, demak, devon 1880- yilda tuzilib, shu paytda shoirning yoshi 40 dan oshgan bo`lsa, u XIX asrning 30- yillari oxirida tug`ilgan, deb xulosa chiqaradi.

Bu fikrga qo`shilib bo`lmaydi. Chunki shoirning devoni uning hayotligida emas, vafotidan so`ng ko`chirilgan va nashr qilingan.

Ikkinchidan, Komil Xorazmiy:

¹ E'tiqod saboqlari turkumidan. Avliyolar sultoni. Turonlik Valiylar. – T.: Yangi asr avlodi. 2004. – B.100.

Komil, ne tong, gar ogah esa so`z kamolidin,

Doim anisi Rojiiy ila Ogahiy erur¹,

deyishiga qaraganda, ular juda yaqin do`st, tengdosh bo`lishlari kerak. Bundan tashqari, Rojiiy «Ravzat us -safo»ning IV va V jildlarini Muhammad Amin Xorazmshohning buyrug`i bilan tarjima qilganligini asarning V jildiga yozgan debochasida aytib o`tadi.

Muhammad Aminxon (1846 - 1855) yillarda hukmronlik qilgan. Agar Ayyomiy domlaning fikrlariga qo`shiladigan bo`lsak, xon taxtga o`tirganda, bo`lajak shoir 7 - 8, hukmronligining oxirgi yillarida esa 15 - 16 yoshli o`smir bo`lgan va shu yoshda «Ravzat us -safo»dek ulkan asar tarjimasiga qo`l urgan bo`ladi. Bu mantiqan mumkin emas. Shu bilan birgalikda, shoir Alisher Navoiyning «Lisonut -tayr» asarini 1849 yilda ko`chirganligi ham fikrimizga bir qadar oydinlik kiritadi. Shuning uchun ham, yuqoridagi dalillarga suyanib, shoirni 1825 yilda tug`ilgan deb hisoblaniladi.

Ayyomiy domla Rojiyning vafot etgan yilini noma'lum desa, adabiyotshunos V.Mo`minova 1900 yilda vafot etgan deb hisoblaydi. Bu ikki adabiyotshunos olimlarimizning shoirni XIX asr 30 yillari oxirida tug`ilib, 1900 yilda vafot etgan degan fikrlari ko`pgina adabiyotlarda qayd etilgan. Lekin Muhammad Amin o`g`li Laffasiy o`zining «Xiva shoirlari» tazkirasida «Rojiiykim, Muhammad Yusuf mahdum qozi Xo`jambari o`g`li bo`lib, ul Xevada Muhammad Aminxon zamonida oning majburiy farmoyishi ilan bir necha forsiy va arabiy kitoblarni tarjima etib, oning vuzarolaridan ham zulm ko`rub, Xeva xonlig`idin dodlang`on holidan tarix hijriy bir ming ikki yuz dag`i sakson oltinchi yili hasrat bilan dunyodan o`tadur»² deb yozgan ma'lumotlarini inobatga oladigan bo`lsak, u 1870 yilda vafot etgan. Laffasiyning ma'lumoti asosli. Rojiyning «Iltijonmayi Rojiiy» nomli munojoti bor. Avvalo, munojot ruhidagi asarlar asosan umr so`ngida, o`tgan umr sarhisob qilinib, qilgan gunohlari, umrni behuda o`tkazgani uchun

¹ Komil. Devon. – T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat, 1975. – B.30.

² Muhammad Amin oʻgʻli Laffasiy. Xeva shoirlari. 1948. – B.17-18.

Yaratgandan afv so`rash ruhida yaratiladi. Asarning 1869-yilda ko`chirilganligi ham bu fikrni isbotlaydi. Shu bilan birgalikda asardagi:

Man g`arib, ey Ibn hojib, dardima topmadim davu,

Kelmisham dargahingga istab madad hayron manam,

satrlaridan shoirning og`ir, tuzalmas dardga chalinganligi ayon bo`ladi. Bundan tashqari, agar u 1900- yilgacha yashaganda, albatta, uning ijodida rus bosqinchiligi tufayli Xivadagi davr taloto`plari aks etishi kerak edi, chunki Rojiydek peshqadam shoir bunday voqealarga, albatta, o`z munosabatini bildirishi lozim edi. Yuqoridagi dalillarga suyanib, biz shoirni 1825-1870- yillarda yashab –ijod qilgan deb hisoblaymiz. Uning ismi Muhammad Yusuf, otasining ismi Xo`jamberdi, Rojiy adabiy taxallusi, Maxdum al-Qozi esa otasi qozi bo`lganligi uchun hurmat yuzasidan qo`shib aytilgan sifat, taxallusiga qo`shib aytiladigan Xorazmiy esa uning nisbasidir. Muhammad Yusuf daslabki savodini oiladan oladi. Keyin Xivadagi maktablardan birida ta`limni davom ettiradi. Otasi Xo`jamberdi oxund Xiva shahrida qozi bo`lib, o`z zamonasining peshqadam, fozil kishilaridan edi. Rojiyga ma`rifatparvar otasining ta`siri katta bo`lgan. Biroq u o`smirlik davrida otasi olamdan o`tadi va Muhammad Yusuf juda qiyinchilik bilan madrasada tahsil oladi. U madrasada arab, fors tillarini mukammal o`rganganligi shubhasiz, bunga uning arab va fors tillaridan qilgan tarjima va she`rlari guvohlik beradi. U tez orada zukko shoir sifatida va husni xatda alohida qobiliyati bilan nom chiqardi hamda Muhammad Aminxonning nazariga tushdi. Uning buyrug`i bilan «Ravzat us - safo» asarining IV va V jildlarini tarjima qiladi. Uning saroydagi ijodiy faoliyati Sayyid Muhammadxon davrida ham davom etdi. Bunga uning shu shohga bag`ishlab yozgan qasidalari guvohlik beradi.

Inson jismini tuproq yashiradi, ammo o`tmishni, xotirani hech narsa bilan yashirib bo`lmaydi. Xotira – muqaddas, ijodkor xotirasi ham shunday. U, birinchidan, o`z asarlari yashasa, so`ng uni bilgan, tanigan kishilar xotirasida, qalbida yashaydi. Shu ma`noda tazkiralari juda qimmatli, nodir manba hisoblanadi. Rojiy Xorazmiy o`z davrining iste`dodli shoiri sifatida uchta tazkiradan o`rin

olgan. Birinchisi Laffasiyning «Xiva shoirlari», ikkinchisi shu muallifning “Xiva shoir va yozuvchilarining tarjimai hollari” bo`lsa, uchinchisi Po`latjon Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiyy” tazkirasidir.

“Xiva shoir va yozuvchilarining tarjimai hollari” tazkirasida 51 nafar shoir haqida ma`lumot berilgan bo`lib, Rojiiy to`rtinchi o`rinda keladi va Laffasiy unga shunday baho beradi:

Rojiiykim, maxsumzoda erur,
Aning tab`i she`ri ozoda erur.
Xirad ichra topib izzat -e`tibor,
Kitobatlig` bilan doim barqaror.
Qilib ancha kitobat tarjima,
Musamman qilib fikrig`a hama.

Rojiiykim Muhammad Yusuf maxsum qozi Xo`jambari o`g`lidir. Ul yoshlik zamonida Xeva madrasalarida ilm tahsil hosil qilib, o`zining g`ayrati orqasi anchoqli ma`lumotli bo`lib yigitlik g`ururiga vobasta va shirin misol gulchehra mahbubalarning mushkin zulflarig`a ko`ngil qushin payvasta qilib, o`zig`a Rojiiy taxallus bilan ancha she`rlar mashqin etib, bir xayl adabiyotlar yozadi.

Rojiiyning she`rlari zohiran oshiqona bo`lsa-da, asli ma`niy jihatdan bir daryoyi ummon bo`lib, ilm g`avvoslari bir nuqtasidin yuzlarcha ma`niy hosil qilur erdilar. Rojiiyning ko`pchilik she`rlari hamdi ollotaolou natna`tirasul Ollo bo`lib, aksari Xiva ulamo vuzarolarini tanqid etib, olarni hajvlar etur”. Ijod ahli hech bir zamonda rohat -farog`atda yashamagan. Jumladan, Muhammad Yusuf Rojiiy ham bundan mustasno emas. Tazkirada bu holat quyidagicha aks etgan:

“Ammo Rojiiy Muhammad Aminxon zamonida ilm tahsilni xatmi kutub qilg`ondin keyin, Muhammad Aminxon farmoyishi bilan “Tarix ravzatus -safo”ni forsiy tildan chiqarib, turkiy tili bilan libosi mulkona kiyguzub, andog` ziyatlik qilib olam ahlig`a xurshidi raxshondek jilvagar etadur. Ammo Rojiiy Muhammad Aminxon zamonidin keyin Said Muhammadxon va Muhammad Rahimxon Feruz

zamonlarida forsiy lisonlig` va arabiy lug`at kitoblarni o`zbek ona tilig`a o`tkazub olardin hech bir vaqt forig` osuda xotir bo`lg`on ermas. Tamomi umrin hattotlig` bilan mashg`ulliq qilib o`tkazgan. Shul sababdin Rojiy tamom vaqt falak zolimi jafokorning zulmu sitamidin dodlanib, hamisha dilgirlik bilan parishoni ro`zigor bo`lib, umr kechirganligi Rojiyning adabiyotlaridan ham ma'lum bo`ladur.

Rojiy shundog` xushxat, xushnavisat bo`ladirki, oning zamonidagi yozuvchilari musallam angushtlaridin hayrat dandonlari birlan tishlab, Rojig`a xat xususida shogird bo`lmog`lig`ni o`zlarig`a fayz biladurlar. Rojiy oxirgi umrida Xiva xonlig`i amiri vuzarolaridin ancha dodlanib. yuz ming hasrat va nadomatlar bilan zolim falakdin shikvalar qilib, ushbu bevafo dunyodin voz kechib, oxirat safarig`a raxt ehrom bog`lab, behisht jovudonig`a borib orom qilodur.

Laffasiy o`zi ham go`zal g`azallar yaratgan ijodkor bo`lib, yakunida Rojiy sha`niga quyidagi misralarni bitadi:

Rojiykim, ustod hattotdur,

Ko`ribon falakdin ancha zulm Farhodur.

Aning ash`oridur shirin maqol,

Ki yo`qtur monandi ajab bemisol,

Ki Rojiyning asaridin bir g`azal,

Aning yozg`um varaq uzra bebadal,

deb uning ikkita g`azalini namuna sifatida keltiradi.

“Tazkirai Qayyumiy”da tazkira muallifi Rojiyning xorazmlik bo`lib, qozining o`g`li bo`lganligini, shuning uchun unga hurmat yuzasidan maxdum sifati qo`shib aytilishini, otadan erta yetim qolib, moddiy muhtojlikda madrasada o`qiganligini aytib, devoni hajman kichik bo`lsa-da, ammo she`rlarida amaldorlarni tanqid etadigan o`rinlar borligini yozadi.

Ogahiy, Komil, Rojiylar – juda inoq yaqin do`st, hamkor, hamfikir, o`zlari aytmoqchi “anis” – hamdam, hamdard edilar. Rojiyda shunday misra bor:

So`z *kamol*idin *Rojiy*, *ogoh* ersa, tong yo`qkim,

Bor anisi damsozi Ogahiy bila Komil¹.

Komil ham o`z navbatida shunga hamohang misralarni bitadi:

Komil, ne tong, gar *ogah* esa so`z *kamol*idin,

Doim anisi *Rojiy* ila *Ogahiy* erur².

XIX asr Xorazm adabiy muhiti o`zbek adabiyoti tarixida o`zining ilmiy, ijtimoiy, adabiy va tarixiy salohiyatiga ega bo`lib, shoirlar miqdori, adabiy merosining salmog`i va ahamiyati bilan shu davrdagi Buxoro va Qo`qon adabiy muhiti orasida ham alohida o`ringa ega. Rojiy o`zining boy adabiy merosi, xususan, g`azal va muxammaslari bilan nafaqat mazkur janrlar taraqqiyotiga o`z hissasini qo`shdi, balki XIX asrdagi xalqona va demokratik adabiyotning rivojlanishiga astoydil harakat qildi, bu borada Ogahiy va Komil Xorazmiyning olqishiga sazovor bo`ldi. Uning g`azal va muxammaslari badiiy go`zalligi, san`atkorona tarovati, o`ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi Urganch davlat universiteti o`zbek adabiyoti kafedrasida o`rganilayotgan «O`zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari» mavzuidagi istiqbolli rejasi tarkibiga kiritilgan. Mavzu Urganch davlat universiteti Filologiya va san`at fakulteti Ilmiy kengashining 2011 yil avgustdagi yig`ilishida 1-raqamli bayonnoma bilan tasdiqlangan.

Tadqiqotning maqsadi. Ishning asosiy maqsadi Muhammad Yusuf Rojiy Xorazmiy lirik merosi va shoir poetik mahoratini ko`rsatib berish.

Tadqiqotning vazifalari.

- Rojiy Xorazmiy devonida mavjud lirik janrlar tavsifini keltirish;
- Devonda mavjud musammatlarning mavzu va g`oya ko`lamini o`rganish;
- Shoirning badiiy tasviriy vositalardan foydalanish mahoratini yoritib berish;

¹ Rojiy. Devon. № 1271. 36 b.

² Komil. Devon. – T.: Adabiyot va san`at, 1975. – B. 127.

- Devonda qoʻllanilgan stilistik sintaktik vositalardan foydalanishdagi shoirning mahoratini koʻrsatib berish;
- Shoir sheʼrlarining vaznini aniqlash;
- Rojiiy sheʼriyatiga munosabat bildirish.

Ishning tadqiqot obyekti va materiallari. Tadqiqot obyekti sifatida oʻzbek mumtoz adabiyotida shoir, tarjimon sifatida yuksak baholangan badiiy meros sohibi Muhammad Yusuf Rojiiy Xorazmiyning OʻzR FA SHI qoʻlyozmalar fondida №1271 inventar raqami bilan saqlanayotgan devoni asosida nashr qilingan “Jamoling gulshanining bulbuliman” nomli kitobi tanlandi¹.

Tadqiqotning metodologik asosi va ilmiy metodi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning milliy qadriyatlar, maʼnaviyatni yuksaltirish va targʻib etishga oid dasturiy xarakterdagi fikr-qarashlari hamda hozirgi adabiyotshunoslik metodologiyasi fani erishgan yutuqlardan metodologik asos sifatida foydalanildi. Shuningdek, koʻzda tutilgan masalalarni hal etishda V.A.Abdullayev, Gʻ.K.Karimov, S.Dolimov, B.Qosimov, H.Homidiy, N.Komilov, Y.Isʼhoqov, N.Rahmonov, I.Haqqulov, A.Hojiahmedov, S.Roʻzimboyev, A.Ahmedov kabi olimlarning muhim nazariy fikrlari tadqiqotning metodologik asoslari va tahlil usullarini tashkil etadi. Ishda asosan matn talqini, qiyosiy - tarixiy metodlaridan foydalanildi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, uning umumiy hajmi ... sahifani tashkil etadi.

¹ Muhammad Yusuf Rojiiy Xorazmiy. Jamoling gulshanining bulbuliman. Toʻplovchi, nashrga tayyorlovchi f.f.n. M.Berdimurotova. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 175 bet.

I. ROJIY XORAZMIY SHE'RIYATINING JANR KO'LAMI.

Shoir, xattot va tarjimon Muhammad Yusuf Rojiiy Xorazmiy garchi qisqa (45 yil) umr ko`rgan bo`lsa ham, o`zidan ancha salmoqli meros qoldirgankim, bu bilan bugungi mustaqillik davrida uning nomi o`lmas adabiy meros yaratuvchisi sifatida tilga olinmoqda.

Rojiiy Xorazmiy ijodi ko`p asrlik an`analarga boy Sharq she`riyati negizida shakllandi. An`ana va novatorlik uning deyarlik har bir she`rida aksini topgan. adabiyotshunos olim M.Madg`oziyev “Rojiiy Marg`iloniy va uning poetik mahorati” nomli tadqiqot ishida Rojiiy Xorazmiyning uchta devoni mavjudligini ta`kidlaydi. Ammo f.f.n. M.Berdimurotova bu borada quyidagicha fikr bildiradi: “Aslida Rojiiyning devoni bitta bo`lib, qolganlari turli yillarda nashr qilingan nusxalaridir. Rojiiy devonlari nusxalari orasida 1271 inventar raqami bilan O`zR FA Sharqshunoslik instituti qo`lyozmalar xazinasida saqlanayotgan nusxasini eng mukammal deb topdik”¹.

Rojiiy she`riyati g`azal, muxammas, musaddas, mustazod, murabba`, musaddas, qasida, hikmat, munojot va ta`rix kabi janrlardan tashkil topgan bo`lib, jami 3500 misra atrofida. Buni yana ham aniqroq tasavvur qilish uchun quyidagicha jadval asosida tasnif qildik:

№	Janri	Miqdori	Jami misra soni	Yaratilish xususiyatiga ko`ra		Eslatma
				Tab`i xud	Tazmin	
1	G`azal	120 ta	1916	–	–	
2	Mustazod	2 ta	56	–	–	
3	Muxammas	36 ta	1225	6	30	
4	Musaddas	2 ta	72	2	–	
5	Qit`a	2 ta	8	–	–	
6	Qasida	3 ta	140	–	–	

¹ Muhammad Yusuf Rojiiy Xorazmiy. Jamoling gulshanining bulbuliman. To`plovchi, nashrga tayyorlovchi M.Berdimurotova. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – B. 13.

7	Nasihati hikmat	1 ta	16	–	–	Bu she’r №377/III raqamli qo’lyozmadan olingan
8	Ta’rix	2 ta	20	–	–	1-ta’rix moddasi: “Xorazmshoh a’dad bod” ¹ . 2-ta’rix moddasi: “Oh, mehri raft az dunyo birun” ² .

Bu she’rlar o`zining badiiyati, mavzular rang-barangligi bilan ajralib turadi.

1.1. Rojiyning g`azal, mustahzod, ta’rix va qasidalari haqida

Azaldan Sharq adabiyotida shoirning poetik mahorati g`azal janrida qanday, qay darajada ijod qilgani bilan belgilangan. **G`azal** (ar.oshiqona so‘z, ayollarga xushomad, xotin-qizlar bilan yoqimli munosabatda bo‘lish) janri ilmiy adabiyotlarda 3 baytdan 19 baytgacha bo‘ladi, deb ta’kidlangan. Mumtoz shoirlarimiz ijodini kuzatar ekanmiz, g`azalning ko`pincha 7 baytlik turiga duch kelamiz. Tadvin qoidalariga ko`ra, devonda birinchi o`rinda g`azal janri kelishi, oxirgi harfiga qarab joylashtiriladi.

Rojiy she’riyatini kuzatar ekanmiz, g`azalning 5 baytlik (1 ta), 6 baytlik (1 ta), 7 baytlik (75 ta), 8 baytlik (2 ta), 9 baytlik (24 ta), 10 baytlik (2 ta), 11 baytlik (12 ta), 12 baytlik (1 ta), 13 baytlik (2 ta) shakllarini kuzatishimiz mumkin. Ko`rinadiki, Rojiy Xorazmiy an’anaviy g`azalchilik qoidalariga sodiq qolgan holda, asosan, 7 baytlik g`azallar yaratgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, g`azallar

¹ Umumiy adadi: 1272 hijriy, 1855 milodiy. Bu ta’rix Sayyid Muhammadxonning taxtga o`tirgan sanasini bildiradi. Qarang: Sultonova Q.A. Ogahiyning “Gulshan ul-asror” asari adabiy manba sifatida. filol... fanl... nomz... avtoref. – T., 2000. – B. 19.

² Umumiy adadi: 1276. Bu ta’rixning “zo’id ul-a’dod” turiga mansub bo‘lib, unda 3 son ortiqcha qo`llangan. Ta’miya usuliga ko`ra, “jannat” so`zidagi jim (abjad hisobi bo`yicha 3 ga teng keladi) olib tashlansa, hijriy 1273, milodiy 1855 sanasi kelib chiqadi. Bu Xiva xoni Qutlug`murodxonning o`ldirilgan yili.

ko`pincha toq baytli yaratilgan. Buning sababini musulmon xalqlarida toq raqamlarga alohida e`tibor qaratilganligi bilan isbotlashimiz mumkin.

Azaldan ma`shuqa ta`rifida osmon jismlariga nisbatan tashbih qo`llash mavjud holdir. “Oftob” radifli g`azal ko`pchilik ijodkorlar ijodida kutiladi. O`z davrida Mavlono Lutfiy xuddi shu so`zni radif sifatida qo`llab, ajoyib g`azal namunasini yaratgani, davrining yuzga yaqin shoirlari unga nazira bog`laganliklari manbalardan ma`lum. Xuddi shunday radif Rojiiyning sirdosh do`sti Komil Xorazmiy ijodida ham ko`zga tashlanadi.

Bo`ldi ul oy uzorig`a to banda oftob,
El dedi vasfida oni tobanda oftob¹.

Ma`shuqa ta`rifi beqiyos. Oshiq uni ta`riflar ekan, uning husni oldida quyosh ham xira tortib qoladi, u (ma`shuqa) quyosh ta`sirida emas, balki quyosh uning ta`sirida tovlanadi. Bu o`rinda Rojiiy o`zining betakror poetik mahoratini ham namoyon qila olgan. Baytda qo`llangan tajnisi mafruq (to banda – tobanda), tashbihi kinoya (oy) shoirning badiiy maqsadiga o`ziga xos tarzda xizmat qilganki, shoirning go`zal topqirligidan bevosita hayratga tushish mumkin. Ma`shuqa ta`rifida mubolag`ali tasvir keyingi baytlarda yana ham avj oladi:

Gar ursa husn lofini ul orazi a`lo,
Bir jilva birla bo`lg`usi sharmanda oftob.

Oshiq faqat o`z ma`shuqasi ta`rifi bilangina cheklanib qolmasdan, g`aflat ahlini uyg`otishga, qalbi basirlarni ogahlikka da`vat qilib ham qoladi:

G`aflat mayig`a mast o`lubon elga har sahar,
Yig`lar mudomu subh qilur xanda oftob.

Komil Xorazmiy ijodiga xos “Oftob” radifli g`azalda esa shoir o`z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini aks etgan.

Ey shoh, g`arra bo`lma jahon taxtu johiga,

¹ Muhammad Yusuf Rojiiy Xorazmiy. Jamoling gulshanining bulbuliman. To`plovchi, nashrga tayyorlovchi M.Berdimurotova. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – B. 27. Bundan keyingi misollar shu manbadan olinganligi uchun manbadan keyin misol olingan beti ko`rsatilib ketilaveradi.

Gar bo`lsa afsaring qamaru gavhar – oftob.

(Ey shoh, boshdagi tojing oy-u, uning gavhari oftob bo`lganida ham, bu dunyoda taxt-u boyligingga bino qo`yma, mag`rurlan).

Ayrim o`rinlarda Rojiiy o`g`uz lahjasiga mansub so`zlardan radif o`rnida qo`llaganki, bu bilan o`z ona tili imkoniyatlaridan kay darajada mohirona foydalanganligini kuzatishimiz mumkin:

Yo`q yor ko`yi ichra men benavog`a haz,

Andoqki, shah janobida mubram gadog`a haz. (66-bet)

Bu o`rinda shoir “haz” so`zidan o`rinli foydalangan. Oshiqqa yor ishqida rohat-farog`at yo`q, xuddi shoh huzurida qistab turayotgan gadoga farog`at bo`lmaganidek.

Rojiiy komillikni ixtiyor qilgan shoir. Bu yo`lni maqsad bilganlardan katta sabr-matonat, juda ko`p qurbonliklar talab qilinadi. Shoir o`zining tasavvufiy g`azallaridan birida xuddi shu kayfiyatini bayon etgan.

Ohkim, umr o`tti, topmay ranju kulfatdin farog`,

Bermadi davroni dun bir lahza mehnatdin farog`. (70-bet)

Shoir tanlagan yo`l solikdan behad sabr, kuchli iroda talab qiladi. Har qancha ranju mashaqqat cheksa ham lirik qahramon ertangi kunga bo`lgan ishonchini so`ndirmaydi. Chunki islom dinida “Noumid – shayton”, degan aqida bor. Albatta, tortilgan azoblar ajri ham bo`ladi. Faqat mukofot ilinjida emas, balki Yaratgan vaslidan umidvor bo`lish solikning bosh maqsadi hisoblanadi.

Der edilar har mashaqqat keynidin rohat durur,

Etti, shiddat har dami, toptim mashaqqatdin farog`.

Har qanday yaldo kechasi orqasidan oppoq tong otishi har bir mashaqqat orqasidan rohat-farog`at etishiga nisbiy ishora hisoblanadi. Shunday ekan, shoir o`z tanlagan yo`li qanchalik azoblarga to`la bo`lmasin, bir qadam ham orqaga chekinmaydi, bu yo`lda irodasi kuchsizlargina ortga qaytishlari mumkinligini teran his qiladi. Maqsad yo`lida har xil ofat, balo bo`lishi tabiiy. Chunki tariqat yo`lida turli sinovlarning bo`lishi tabiiy.

Har baliyyat ichra qolg`onlar farog`at topdilar,
Bir meni g`ambodag`a yo`qdur baliyyatdin farog`.

Shoir piri komiliga murojaat qilib, shodlik qadahini tutishini, qalbini Yaratgan ishqi bilan limmo-lim to`ldirishda ma'naviy ko`mak berishini so`raydi, ana shundagina bu dunyo uqubatlaridan forig` bo`lib, mangu visolga doxil bo`lish mumkin.

Soqiyo, har lahza rojiyg`a tarab jomini tut,
To topoy bir umrlig` anduhi kulfatdin farog`.

Bir qarashda baytda vahdatul-vujud falsafasining ta'sirini sezamiz, oshiqlar, ya'ni Haq oshiqlarining husni – martabasi Ma'shuqi Boqiy (Haq Taolo)ga intilish, ya'ni uning roziligini axtarish asnosida insonda komillik sifati ortishi bilan muhim ijtimoiy fikr ham ilgari surilmoqda. Ana shu husn zuhuri orqali oshiqlar qalbida cheksiz muhabbat mavjlanadi, ularda ikki dunyo saodatini topish, ikki dunyoda Ma'shuqi yakto rizosiga erishishni ko`zlashdek oliy maqsad uyg`otadi.

Mustazod – arabcha “orttirilgan” degan ma'noni anglatadi. Xuddi g`azaldek qofiyalanadi. Har bir misra oxirida bitta yoki ikkita yarim misracha orttiriladi. Navoiy mustazodni «Mezon ul-avzon» asarida “qo‘shiq” deb atagan: «*Va yana bir surud bor ekandirkim... ani mustazod der ermishlar*». Ogahiy «mukammal mustazod kashfiyotchisi» hisoblanadi, chunki ungacha bitta yarim misracha orttirilgan, Ogahiy esa yarim misrachalar sonini ikkita qilib qo‘llagan. SHuning uchun ham Ogahiy “mukammal mustazod kashfiyotchisi” deb atashadi.

Mustazod o`ziga xos murakkab, ammo jozibador she'riy shakldir. Mustazod yozish shoirdan juda katta tayyorgarlik va mahoratni talab etgan. Rojiiy Xorazmiy ijodida garchi nisbatan kam – 56 misradan iborat ikkita mustazod mavjud bo`lsa ham, ana shu lirik janrning ajoyib namunalarini yarata olgan.

Ey kipriki o`q, qoshlari yo, g`amzasi jallod,
ey ko`zlari jodu,
Bir lutf ila qilsang nedurur xotirimi shod

chekdim base qayg`u. (99-bet)

Rojiyning bu mustazodi sof oshiqona ruhdagi asar bo`lib, uning boshdan-oyoq mazmuni oshiqning ma`shuqani vasf etishi, unga dil izhorini ifodalashiga bag`ishlangan. Bu ta`riflar baytma-bayt kuchayib boradi.

Bog` ichra sango gul o`zini mengzatur o`lsa
yo`qtur ko`zi, tong yo`q,
Bulbul seni ko`rdiyu ani ayladi barbod
deb hojat emasmu?

Ma`shuqa go`zalligi shu darajadagi, hatto bog`da ochilgan gullar uning husni oldida ojizdir, bulbul uni ko`rgach, o`zini barbod qilar darajada oshqlik asb etmoqda.

Yorning shunday husn-u latofati oldida falak mehri – quyosh ham, ko`k sipehri – oy ham xijil.

Xurshid demakka yuzungga o`zni mushobih
yo`qdur tili, og`zi,
Oy qilsun o`zin sango barobar, tutubon yod,
bo`lsun desa kulgu.

Rojiy birinchi mustazodda boshdan-oyoq ma`shuqa ta`rifini keltirgan bo`lsa, ikkinchi mustazodda hijron motivlari bilan birga o`zining ijtimoiy qarashlarini ham aks etgan.

Faryodki bir mohvashe soldi balog`a
men zori gadoni,
Zindoni firoq ichida topshurdi jafog`a,
yozdurma deb oni.

Ma`shuqa hijronidan yozg`urayotgan oshiq o`z ahvolidan norozi. Firoq o`tida qovrilayotgan oshiq qalbi pajmurda bir holda. Lirik qahramonning bunday ahvoli ko`pchilik shoirlarda uchraydi. Zero, firoq vaslni yana ham totli qiladi, ishqni yana ham toblaydi. Mustazod so`ngida shoir shohga murojaat qilib,

mamlakatni obod qilishlikni, el tinchini buzmaslikni, Yaratgan lutfiga sazovor bo`lmoqchi bo`lsa, o`z fuqarolari dilini shod etishi kerakligini uqtiradi.

Ey shah, tilar bo`lsang agar mulkni obod,
el ko`nglini buzma,
Desangki sazovor o`layin lutfi xudog`a,
shod et fuqaroni.

Bu misralar bevosita Ogahiyning “Ustina” radifli g`azalidagi “Ey shah, karam aylar chog`i teng tut yamonu yaxshini” misralarini esga soladi. Rojiyning bu bayti g`azalchilikda uchraydigan “begona bayt” atamasiga mohiyatan mos keladi.

Ta`rix a –rabcha “تاريخ” so`zidan olingan bo`lib, lug`atda muhim voqea-hodisa yuz bergan sanani san`at usulida ifodalash ma`nosini bildiradi. Ta`rix mumtoz adabiyotimizda qo`llanilgan poetik janrlardan biri bo`lib, badiiy sa`nat sifatidagi poetik belgilari to`la qat`iylashtirilmagan. Shuning uchun ham g`azal, qit`a, ruboiy, masnaviy kabi janrlarda yoziladi. Ta`rix san`atining o`ziga xos jihati shuki, “unda mashhur tarixiy shaxslarning tug`ilgan yoki vafot etgan sanasi, muhtasham binoning qurilgan yili, noyob kitobning yozilgan sanasi (yoxud devon tartib berilgan payt), katta voqea sodir bo`lgan davr kabilar ochiqdan o`chiq aytilmasdan arab alifbosining maxsus harflari, so`z yoxud so`z birikmalari vositasida ifodalanadi. Bunday sanani bildiruvchi harf, so`z yoxud so`z birikmasi “ta`rix moddasi” deb yuritiladi”¹. Ta`rix san`ati “ta`rix moddasi”da kerakli sanani yashirib berishi jihatidan muammo va muvashshahga yaqin turadi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ta`rix san`ati muammo zaminida paydo bo`lgan yoki muammo san`atining bir ko`rinishidir. Muammo san`ati “bir nomni ishora yo`li bilan ko`rsatkuvchi bir kalom bo`lib”, o`sha ishora orqali yashiringan ism topilib, muammo yechilsa, ta`rix san`atida so`z yoki so`z birikmalariga yashiringan kerakli sana abjad hisobi bo`yicha topiladi.

Ta`rix san`atida berilgan jumboqni to`g`ri yechish uchun, dastavval, arab grafikasiga asoslangan eski o`zbek yozuvini, uning imlo qoidalarini va albatta,

¹ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O`zbekiston”, 2002. – B. 407.

abjad hisobini bilish kerak. Chunki jumboqni yechishdan avval “ta’rix moddasi”ni arab grafikasiga asoslangan eski o`zbek yozuvida to`g`ri, bexato yozish va shunga ko`ra o`qish kerak bo`ladi.

Ma’lumki, arab grafikasida 28 ta harf bor. Mavjud 28 ta harfning har biri ma’lum raqamlar bilan qayd etilgan. Bular quyidagilar:

Harf	Nomi	Raqami	Harf	Nomi	Raqami
ا	Alif	1	س	Sin	60
ب	Be	2	ع	Ayn	70
ج	Jim	3	ف	Fe	80
د	Dol	4	ص	Sod	90
ه	He	5	ق	Qof	100
و	Vov	6	ر	Ro	200
ز	Ze	7	ش	Shin	300
ح	Ho	8	ت	Te	400
ط	To	9	ث	Se	500
ى	Yo	10	خ	Xe	600
ك	Kof	20	ذ	Zol	700
ل	Lom	30	ض	Zod	800
م	Mim	40	ظ	Zo	900
ن	Nun	50	غ	G’ayn	1000

Forsiy va turkiy xalqlar tomonidan yuqarida ko`rsatilgan 28 ta harfga 4 ta (پ (pe) - p, ژ (je) - j, چ (chim) - ch, گ (gof) - g) qo`shilgan. Bu harflar aslida ب - be, ج - jim, ز - ze, ک -kof harflaridan olingani uchun ularga monand (پ (pe) - 2, چ - (chim) - 3, ژ (je) - 7, گ) -gof) - 20 raqamlari bilan belgilanadi. Bu harflar va qayd qilingan raqamlar oson yodda qolishi uchun ularni quyidagi so`zlarda mujassam qilganlar (“abjad” so`zi ham shundan kelib chiqqan): ا بجد -bjad), هوز - (havvaz), حطى - (hutti), كلمن - (kalaman), سغفص - (sa’fas), قرشت - (qarashat), تخذ - (saxxaz), ضظغ - (zazag`)). (Arab grafikasida qisqa unlilar bevosita ifodalanmay, ma’lum ishoralar (َ ُ ِ) yordamida beriladi).

“Ta’rix moddasi”ni tashkil etadigan so`z yoki so`z birikmalari tarkibidagi harflar o`rniga abjad hisobi bo`yicha tegishli raqamlar qo`yib chiqiladi. So`ngra ular jamlanib hisoblanadi. “Ta’rix moddasi”dan kelib chiqadigan hijriy yil (oy

kalendari) hisobida bo`ladi. Kerak o`rinlarda hijriy yil milodiy yil (quyosh kalendari) sanasiga aylantiriladi. Buning uchun “oy kalendari” va “quyosh kalendari”dan xabardor bo`lishi lozim bo`ladi.

“Oy kalendari” milodiy 622 yildan, ya’ni Muhammad alayhissalomning Makkadan Madinaga hijrat qilgan kunidan boshlanadi. “Oy kalendari” hijriy qamariy yil hisoblanadi. Bu kalendarda bir yili 12 oy bo`lib, har oy 30 kun yoki 29 kunga teng. Bunday yil quyosh (milodiy) yiliga nisbatan 10,5 kunga qisqa, ya’ni oy yilining har 34 yili quyosh yilining 33 yiliga to`g`ri keladi. Milod yili - quyosh yilida 365 kun bor, hijriy yilda esa 354 kun bo`ladi. Demak, har milod yili hijriy yilga qaraganda 11 kun ortiq. Hijriy yil fasllarda siljib yuradi va har 33 yilda bir aylanib chiqadi. Hijriy yilni milodiy yilga va aksincha, milodiy yilni hijriy yilga aylantirishda mana shu farqni albatta hisobga olish shart. Masalan, milodiy 2012 yilni hijriy yilga aylantiramiz. Bunda quyidagi tartibga amal qilinadi :

1. 2012 yildan 622 ni olish lozim 31 –90 qoladi;
2. 1390 ni 33 ga bo`lamiz 24 –kelib chiqadi;
3. 1390 ga 42 ni qo`shamiz 41 –32 kelib chiqadi.

Demak, milodiy 2012 yil hijriy 1432 yilga to`g`ri kelar ekan. Yoki aksincha, hijriy yilni milodiy yil hisobiga aylantirishda quyidagicha tartibga amal qilinadi. Masalan, O`zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo`lyozmalar bo`limidagi xattot Muhammad ya`qub devon ibn usta Qurbonniyoz Xorazmiy al-mulaqqab ba Xarrot tomonidan hijriy 1323 yilda ko`chirilgan, 938 raqami bilan saqlanayotgan Ogahiyning “Ta’viz ulo-shiqin” devoning qo`lyozma nusxasini olib qaraylik. Bu hisobni milodiy hisobga aylantiramiz:

1. 1323 ni 33 ga bo`lamiz 04 -kelib chiqadi;
2. 1323 dan 40 ni olamiz 3821 -qoladi;
3. 1283 ga 622 ni qo`shamiz 5091 -raqami kelib chiqadi.

Demak, Ogahiyning “Ta’viz ul o -shiqin” devoni milodiy 1905 yilda ko`chirilgan ekan.

Adabiyotimiz tarixida mustaqil asar sifatida ham, yirik hajmli asarning uzviy qismi sifatida ham bitilgan ta'rixlar mavjud. Buning ustiga rang-barang ko'rinishli ta'rixlar bor. Tarixiy poetika nuqtadonlaridan biri Ibrohim Xalil ta'rix san'atining o'n ikki turi borligini aniqlagan¹.

Olimlarimizdan S.Asadullayev va M.Oqilovlar "Ta'rix aytish san'ati" maqolasida ta'rix san'ati turlari xususida ham bahs yuritar ekanlar, ma'naviy ta'rix san'ati guruhining 3 ko'rinishini qayd etadilar²:

1. **Komil ul a -'dod** (tomm -to'liq) –bunda "ta'rix moddasi" mukammal bo'ladi. YA'ni "ta'rix moddasi" bo'lgan so'z yoki so'z birikmalari tarkibidagi harflarning tegishli raqamlari yig'indisidan nazarda tutilgan sana kamchiliksiz (to'liq) kelib chiqadi;

2. **Zoid ul a -'dod** (ziyoda) – "ta'rix moddasi" da qhorti a harf (raqami) i bo'lgan san'atdir. Bu turdagi ta'rix san'atini echishda, muayyan ishoralarga e'tibor qaratgan holda ortiqcha harf (raqam)ni chiqarib tashlash kerak;

3. **Noqis ul a -'dod** (kam, to'la bo'lmagan) – "ta'rix moddasi" dagi so'z (raqam) to'liq bo'lmagan san'at. Bunda muayyan ishoralar orqali e'tibor qaratilgan so'z yoki harf "ta'rix moddasi"ga qo'shiladi va kerakli raqam paydo bo'ladi.

Quyida biz Xivaning 53-xoni sanalmish Qutlug`marodxonning fojeali o'limiga bag`ishlab, Ogahiyning "davron fuzalosidin jomie' al funun va al -ulush" degan yuksak bahosiga sazovor bo'lgan Muhammad Yusuf maxdum Rojij tomonidan bitilgan ta'rixni ko`rib o`tamiz.

Tarixdan ma'lumki, 1855 yilda Xiva xoni Sayid Abdullaxon shahid bo'lgandan keyin Yoqub mehtar Qutlug`murodxonni xon ko'taradi. Qutlug`murodxon yovmutlar bilan bo'lgan jangda turkmanlarga asir tushgan Muhammad Niyoz biyning o`rniga Rahimbardi bekni biy etib tayinlaydi. Bundan

¹ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: "O'zbekiston", 2002. – B. 409.

² Asadullayev S., Oqilov M. Tarix aytish san'ati // O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 1972. – №3. – B.67.

xabar topgan Muhammad Niyoz o`zicha: “Mening qaysi gunohim uchun lavozimimni boshqaga beradi, asir ekanimni bila turib menga bunday bevafoqliq qilgan bu xonni o`ldiraman”, - deb reja tuzadi.

Turkmanlarni yig`ib: “Xonni o`ldirib, men xon bo`laman. Sizlarga Xiva shahrini bir kun talamoqqa ruxsat baraman”, - deb va`da beradi.

Turkmanlarni yig`ib, Xivaga keladi. Bu payt Qutlug`murodxon Arkda edi.

Muhammad Niyoz To`yli ismli va yana bir qancha turkmanlar bilan xon oldiga keladi. Qutlug`murodxon Muhammad Niyoz bilan ko`rishish uchun quloch yozib oldiga boradi. Shu payt Muhammad Niyoz yonidan xanjarini chiqarib, xonning ko`kragiga sanchadi. Qutlug`murodxon: “Og`ajon, na gunoyim bor adi”, - deb yiqilib tushadi. Bu payt Arkdan tashqarida bo`lgan Yoqub mehtar voqeadan xabar topib, qal`a darvozalarini bandi qildirib, yovmutlarni qirib tashlaydi. Muhammad Niyoz biyni qatl etadilar.

Qutlug`murodxonning umri yoshi 18 bo`lib, 7 oy xonlik qilgan. Uning fojeali o`limidan qattiq ta`sirlangan Rojiiy quyidagi ta`rixni bitgandi:

Vo darig` on xisravi Qutluqmurod,
Kard berun jonash az dunyoyi dun.
Bud dar Xorazm shohi hukmron,
Gasht bo hukme qazo ammo zabun.
Bud shohi ma`dani ehson vujud,
Lek dar xubi z mehru mah fuzun.
Az jahon shahdi shahodat kardano`sh,
Raft bar jannat ba ruyi lolagun.
Guft Rojiiy az payi ta`rix u:

“Oh, mehri raft az dunyo birun”, آه مهری رفت از دنیا بیرون

Tarjimasi:

Vodarig` ul podshahi Qutlug`murod,
Tashlabon jonini dunyodin bugun.
Hukmron shoh erdi ul Xorazmda,

Lek qazo hukmi bilan bo`ldi zabun.

Ul vujudi koni ehson shoh edi,

Yaxshiligi ortib oy quyoshdin.

Bu jahondan totib ul boli shahid,

Ketdi jannat sori yuzi lolagun.

Dedi Rojjiy, izlabon ta`rixini:

“So`ndi bir quyosh dunyodin bugun”¹.

Aruz vaznining ramali mauaddasi maqsurida (foilotun foilotun foilon, chizmasi: - V - --V - --V .(-yuksak mahorat bilan bitilgan ta`rixning moddasi:

“Oh, mehri raft az dunyo birun”, آه مهري رفت از دنيا بيرون

Bu so`zdagi harflar ifoda etgan raqamlar yig`indisi .6721 –

Bu raqam ta`rix san`atining ta`miya (ya`ni, tartibga keltirish) uslubiga ko`ra “Raft bar jannat ba ruyi lolagun” iborasining muayyan ishoratiga ko`ra, “jannat” so`zidagi ج (jim) tashqari olinadi. ج (jim) harfining qiymati bo`lmish 3 raqamini umumiy adaddan, ya`ni 1276 dan ayirib tashlaymiz. Natijada 1273 sanasi kelib chiqadi. Bu sana hijriy yil hisobida Qutlug`murodxon vafot etgan yilga, ya`ni milodiy hisobda 1856 yilga to`g`ri keladi. Ta`rix san`atida bunday asar “Zoid ul - a`dad” (ziyoda adadli) ta`rix deb ataladi. Bunday ta`rixni yaratish har bir ijodkordan chuqur bilim va keng mushohadakorlikni talab etadiki, Rojjiy san`atkorona mahorat bilan o`ziga xos, badiiy jihatdan mukammal asar yarata olgan.

Muhammad Yusuf Rojjiy Xorazmiyning yana bir ta`rix milodiy 1856 yilda Sayyid Muhammadxonning Xiva taxtiga o`tirish munosabati bilan yozilgan. Bu ta`rix ham 10 misradan iborat bo`lib, g`azal shaklida qofiyalangan, maqta` qismi quyidagicha:

Karda Rojjiy duo ba ta`rixash,

Gufti: “Xorazmshoh a`dal bod”¹. خوارزمشاه اعدل باد

¹ Ismailov I.O. Ogahiyning “Jome` ul-voqeoti sultoniy” asarida badiiy san`atlar va folklor an`analarining qo`llanishi. filol... magistr... diss. – Urganch, 2004. – B. 18.

Tarjimasi:

Rojiy duo qilib ta'rixiga,

Dedi: “**Xorazmshoh adolatli bo'lsin**”.

O`zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari singdirilgan bu ta'rix moddasi “Xorazmshoh a'dal bod” bo`lib, so`zlardagi harflar ifoda etgan raqamlar yig`indisining umumiy adadi 1272 tarixiy sanasiga munosib tushmoqda. Bu sana yuqorida eslatilgan Sayyid Muhammadxonning 1856 yilda Xiva taxtiga o`tirgan yiliga to`g`ri keladi.

Ta'rix san'atida bunday asarlar “Ta'rix komil ul-a'dod”, ya'ni “to`liq adadli” ta'rix deyiladi. Bunday ta'rixni yaratish ijodkordan chuqur bilimni talab etadiki, Rojiiy san'atkorona mahorat bilan o`ziga xos badiiy jihatdan barkamol asar yarata olgan.

Qasida – arabcha “qasd qilmoq”, “niyat qilmoq” degan ma'nolarni anglatib, mashhur tarixiy shaxslar va buyuk voqealarni madh etuvchi tantanavor uslubdagi lirik janrdir. Paydo bo'lishi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladigan qasida janri xuddi g`azal tarzida qofiyalanadi. Hajm jihatidan 15-20 baytdan 100 baytgacha bo'ladi. Mavzu yo'nalishiga ko'ra olti xil bo'ladi: 1. *Vasf*; 2. *Madh*; 3. *Marsiya*; 4. *Hajv*; 5. *Murojaat*; 6. *Falsafiy*.

Qasidalar tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. To'liq qasidalar – *nasib*, *gurizgoh*, *madh*, *qasd* kabi qismlardan iborat bo'ladi.

Nasib – Qasidaning tabiat tasviri ifoda etiluvchi kirish qismi.

Gurizgoh – Kirish bilan madhni bog'lovchi, 4-5 baytlik she'r

Madh – Shaxsning fazilat va sifatlarini maqtaydigan qism.

Qasd – Shoirning maqsadi, niyati, qasida bag'ishlangan shaxsga tilak va istaklari.

2. Chala (mujarrad) qasidalar – yuqoridagi qismlar to'liq bo'lmaydi.

¹ Sultonova Q.A. Ogahiyning “Gulshan ul-asror” asari adabiy manba sifatida. filol... fanl... nomz... avtoref. – T., 2000. – B. 19.

Agar qasidada kirish qismi bo`lmasa, **mahdud** deb yuritiladi¹.

Rojiy lirik merosida 3 ta qasida mavjud bo`lib, ularning barchasi Xiva xoni Sayyid Muhammadxonga bag`ishlangan.

Shoir bu qasidalarida faqat xonning quruqdan quruq madhi bilan ovora bo`lib qolmasdan, Xiva xonligidagi mavjud ijtimoiy ahvolni ro`y-rost ko`rsatishga harakat qiladi.

Xosa Xevaq shahri o`zbek ahlidin nakbat chekib,
Har soridin davlat aysolig`a bo`ldi ishtihor. (142-bet)

Rojiy har uchala qasidasida ham bir xil uslubni qo`llagan. Ya'ni lirik qahramon xalq tinchligi, yurt farovonligi, mulk ma'murligidan hayratga tushadi, uning sababchisini surishtirganda barcha ishlarning boshida yurt xoqoni turganining guvohi bo`ladi va uni dialogik nutq orqali oydinlashtiradi. Quyida har uchala qasidadagi ana shu o`rinlarni kuzatamiz:

Birinchi qasidadan:

... Ilmu fazl ahlig`a etti komronlig` mujdasin,
Jahlu xissat xaylidin bordi rivoji e'tibor.
Man **dedimkim**: ul saodatmand kim bo`lg`usidir?
Bo`lmish oning maqdami birla jahon rashki jinon.
Dedikim: hayhot, ey bekas, bu ne g`aflat durur,
Bilmadingmu sen hanuz, ul sarvari olitabor?
Qiblai ahli jahondur, boisi amni amon,
Saltanat daryosida raxshandadur shohi xavor... (142-bet)

Ikkinchi qasidadan:

... Men kim erdim, xusravi sohibqiron maddohidin,
Nazmu nasr ichra kalomim sho`hrai davron erur.
Dedim: aylay madhgustarlik rusumi birla nazm,
Necha so`z tahniyati navro`zi oliyshon erur.
Haq muborak aylasun bu fazlni ul shahg`akim,

¹ Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O`zbekiston”, 2002. – B. 483.

Dargahining har quli bir qaysaru xoqon erur... (144-bet)

Uchinchi qasidadan:

... Chun jahon ahlig`a ko`rdum bu sifat xushhollig`.

Dedim: oyo bu tarab qilmish ekan qaydin zuhur?

Ul nafas yetti qulog`imga bir unkim **derlar** el:

Shoh safardin yetti mulk ichra nuzul yetti surur.

Qaysi shahkim, ma`dani lutfu karam, Xorazmshoh,

Mavridi fayzi ilohi, mahbati lutfi g`urur... (145-bet)

Rojiy ta`rix va qasidalarini yaratishda maddoh shoirlar singari bir yoqlamalikka berilmagan. O`zining muhim estetik qarashlari, falsafiy fikrlari, ijtimoiy-siyosiy yondashuvlari bu she`rlarida o`z aksini topgan.

Umuman, shoirning g`azal, mustazod, ta`rix va qasidalarini kuzatar ekanmiz, ularda o`ziga xos originallik, mavzular betakrorligi, maqsad ulug`vorligi ko`zga tashlanadi. O`quvchi kitobxon shoir dardini his qilgan holda mutolaaga kirishadi, bu jarayonda ijodkor biror soniya bo`lsin, tinglovchini zeriktirib qo`ymaydi.

1.2. Rojiiy musammatlari.

Ijodkor biror mavzuda she`r yaratmoqchi bo`lsa, o`z poetik maqsadidan kelib chiqqan holda biror shaklni tanlaydi. Mumtoz adabiyotimizni kuzatar ekanmiz, har bir lirik janrning o`z mavqeini, o`rnini kuzatishimiz mumkin. ana shu jihatlari bilan she`riy shakllar shoir maqsadiga xizmat qiladi. Deylik, shoir ma`shuqasiga o`z ishqini bayon qilmoqchi yoxud hijron azoblaridan shikoyat qilmoqchi bo`lsa, unda bu o`rinda **g`azal** shakli qo`l keladi. Xuddi shu tariqa epik bayon tasvirida **masnaviy**; zukkolikni sinash jarayonida **tuyuq**, **muammo**, **chiston (lug`z)**; pand-nasihat uchun **qit`a**; ijtimoiy-falsafiy fikrlar bayonida **ruboiy**; ta`rif-tavsif holatida **qasida** shakllari mos keladi.

Bandli she'rlar tizimi – musammatlar esa o'ziga xos tarzda poetik maqsadlar uchun galeriya vazifasini o'taydi. Har bir shakl muayyan maqsadni ko'zlab yaratiladi.

Musammatlar yaratilish xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

a) Mustaqil (tab'i xud) musammatlar – bunda she'r boshdan oyoq bir shoir qalamiga mansub bo'ladi. Rojiyning 38 musammatidan 8 tasi mustaqil musammatdir (6 muxammas, 2 musaddas).

b) Tazmin musammatlar – bunda shoir boshqa bir shoir g'azalidan ta'sirlanib, shu vazn, shu qofiya, shu mazmun, shu radifda musammat yaratadi. Rojiyning 38 musammatidan 30 tasi tazmin musammatdir (Ularning barchasi muxammas bo'lib, taxmis usuli bilan yaratilgan).

Rojiy ijodida g'azaldan keyin keng ko'lamdor o'rinni **muxammaslar** egallaydi. Rojiyning barcha devon nusxalarida uning muxammaslari soni 28 ta deb belgilangan. Ammo O`zR FA SHI qo`lyozmalar fondida saqlanayotgan № 1918, №7050 va №7006 inventar raqamli bayozlardan Rojiyning devoniga kirmay qolgan 8 ta muxammasi aniqlangan. Ulardan 3 tasi Navoiy g'azaliga, 2 tasi Ogahiy g'azaliga va bittasi Fuzuliy g'azaliga bog'langan. Shunday qilib, uning jami muxammaslari soni 36 tani tashkil qiladi. Rojiy devonida klassik adabiyotimizning g'azal, muxammas, mustazod, musaddas, murabba', ta'rix va qasida kabi 7 tur janri mavjud. Shu bilan birga, uning devoniga kirmagan va O`zR FA SHI qo`lyozmalar fondida №6895 inventar raqam bilan saqlanayotgan "Iltijonmayi Rojiy" munajoti shoirning ijodiy imkoniyatlari kengligini yana bir bor namoyon etgan¹.

Rojiy qalamiga mansub 36 ta muxammasning 6 tasi o'z qalamiga mansub bo'lsa (ikkitasi fors-tojik tilida), qolganlari Navoiy (14 ta), Fuzuliy (6 ta), Ogahiy (2 ta), Amiriy (1 ta), Komil Xorazmiy (1 ta), Sharif (1 ta, fors-tojik tilida), Hoziq

¹ Muhammad Yusuf Rojiy Xorazmiy. Jamoling gulshanining bulbuliman. To'plovchi, nashrga tayyorlovchi M.Berdimurotova. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – B. 14.

(1 ta, fors-tojik tilida), Husayniy (2 ta), Mulla Vaysniyoz Ziyrak (2 ta) g`azallariga bog`langan muxammaslardir.

Rojiy salaf shoirlar lirikasidan bahramandlik natijasi o`laroq, ularga nazmiy javob aytgisi, o`z ehtiromini muxammas bog`lagan holda ijodiy bayon qilmoq istagan. Ustozlar she`riyatini teran anglash, ular ko`zlagan poetik maqsadlarni yana ham yuksaltirish, she`rga haqiqiy joziba baxshida qilish har ijodkordan iste`dod va talant talab qiladi. Oldin yaratilgan g`azal go`zal bir tarzda shakllantirilgan bo`lsa-yu, tazmin bog`layotgan shoir uni xiralantirib qo`ysa, bundan yomoni yo`q. Yoki aksincha, musammat bog`langanidan keyin oldingi ochilmay qolgan qirralar oydinlashtirilgan bo`lsa, bu ancha muvaffaqiyat hisoblanadi. Rojiiy ijodiga baho berar ekanmiz, ikkinchi ta`rif ayni muddao ekanligini ko`ramiz. Fors-tojik tilida ham o`z ona tilidagidek original satrlar yaratishning o`zi bo`lmaydi. So`z qadrini o`z qadri deb bilgan zullisonayn shoir Rojiiy bu vazifani ortig`i bilan uddalagan.

Rojiiy Ogahiyning “Ustina” radifli g`azalining 6 baytiga bog`lagan muxammasida ham ustozini izidan borib, munosib javob qaytarishga erishgan.

Ul oyki aylar yuz jafu, har javri mo``tod ustina,
Kelmas qilib mingu ado, bir qatla minqod ustina,
Yuz birla qaddi ko`r ko`zu ruxsori ozod ustina,
Mushkin qoshining hay`ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlimg`a nas zohir qilur, nun eltibon sod ustina. (137-bet)

Aslida, oxirgi misra Ogahiyda boshqa keltirilgan: “Qatlim uchun nas keltirur nun eltibon sod ustina”. Lekin Rojiiyda, yuqorida keltirilganidek, bu misraga boshqacharoq yondashilgan. Vazn esa o`sha-o`sha: mustaf`ilun, mustaf`ilun, mustaf`ilun, mustaf`ilun – rajazi musammani solim. Balki, Rojiiy ustoziga to`g`ridan-to`g`ri ergashmasdan, o`z fikrini taklif sifatida keltirgandir. Lekin nima bo`lganda ham, asliyat saqlanishi kerak.

Maqta`da ham salaf shoirga bo`lgan hurmat-e`tibor yaqqol sezilib turadi:

Lutf ila Rojiiyning ishi yetmishdurur ul yergakim,
So`z ahli bermaslar javob oning mingidin birgakim,

Gar desa so`z o`trusida tushgay uyotdin tergakim,
Ne hayrat ila Ogahiy ochg`ay og`iz so`z dergakim,
Yuz xayli g`am qilmish hujum ul zori noshod ustina.

Rojiy Xorazmiy she`rlarini kuzatar ekanmiz, tasavvufiy ohanglarni ham uchratishimiz mumkin. Islom qonun-qoidalarini yaxshi o`zlashtirib olgan shoir ayrim so`zlarning konnotativ ma`nosidan foydalanib, tasavvufiy atamalarga murojaat qiladi.

Tasavvuf hayotda yashab, bilish orqali bilinadigan hol ilmi bo`lgani sababli, Islomning botiniy jihatini tashkil etuvchi «imon», «ehson» va Haqni tanib-bilish ham uning mavzusi qatoriga kiradi.

Tasavvuf ilmiga oid maxsus istilohlar ham uning mavzularidandir. Masalan, nafsini tanimoq, qalbidan ogoh bo`lmoq, bilmoq, nafsini poklamoq, ko`nglini tamizlamoq, mukoshafa, mushohada, maqomlar, hollar, qurbiyat, vusul, fano, baqo, sukr, ishorat, ilhom va h.k.

Hazrati Payg`ambarimiz (s.a.v.) «Men go`zal axloqni ado etmoq uchun yuborildim» deyish bilan so`nggi payg`ambar sifatida o`z risolatining g`oyasini bildirganlar. Tasavvufning g`oyasi ham axloqning kamol martabasiga erishmoq uchun har sohada Rasululloh (s.a.v.) ko`rsatgan yo`ldan yurib, botiniy va zohiriy etuklik jihatidan Uning haqiqiy vorisi bo`lmoq yo`lini ko`rsatishdir.

Tasavvufning g`oyasi - Janobi Haqning roziligiga erishmoq uchun nafsni poklab, go`zal axloq egasi bo`lishga intilmoq, ya`ni Alloh va Rasulining xulqi bilan axloqlanishdir.

Inson ruh va badandan tashkil topgan borliq bo`lib, uning ruhi «ilohiy ruh»dan va «rabboniy amr»dan, badani esa «tuproq»dan va «balchiq»dan tashkil topgan. Latif bo`lgan ruh, jism bo`lgan badanga kiringach, moddiy unsurlarning ruhga ko`rsatgan ta`sirlari, ruhning asl sofligiga ziyon etkazganligidan va inson kamoloti faqatgina ruhning sofligini muhofaza qilish orqali mumkinligida, ruhning badan ustidan g`alaba qozonishi uchun chora-tadbirlar ko`rish - tasavvufning g`oyasidir.

Navoiy g`azaliga bog`langan bir muxammasda ana shunday holatni ko`rishimiz mumkin:

Istasang kirmak agar ahli muhabbat sonig`a,
Sur azimat tavsanin dashti fano maydonig`a,
Boqma olam gulshanining har guli xandonig`a,
Otashin gul garchi ziynatdur jahon bo`stonig`a,
Barq erur har yel uchurg`on bargi bulbul jonig`a. (116-bet)

Muhabbat soniga kirmoq ahli tariqatga qo`shilmoqlikni ixtiyor qilishdir. Bu dunyo foniy hisoblanib, barcha moddiy narsalar o`tkinchidir. Natijada faqat ruhgina barcha to`fonlardan o`tib, oxiratga doxil bo`lgusidir. Nafsnı jilovlash, moddiy istaklardan voz kechish tasavvufning bosh talablaridan biridir. Shoir ana shu holatning badiiy lavhasini ajoyib kalom bilan ziynatlagan.

Shoir nazdida axloqiy nuqsonlarning hammasi ham birday zararli va ular biri ikkinchisini yetaklab, odamni nafsi palid domiga tortadi, yomonlik yomonlikni tug`diradi. Vaholanki, inson zoti sharifdir va bu xislatlarning birortasi ham uning yuksak nomiga munosib emas. Inson nafsining yovuz qutqularini yengib, ichki jasorati bilan o`z-o`zini yengish va ma`naviy kamolot sari intilib, umrini ezgu-xayr ishlarga sarflash kerak.

Ma`lumki, "nafs" istilohi tasavvufda asosiy o`rin egallaydi. "Tasavvuf ahli barcha falokatlar, yomonliklarning bosh sababchisi, insonni buzadigan asosiy nuqs sifatida nafsni ko`rsatadilar va nafsga qarshi urush e`lon qilganlar", deb yozadi N.Komilov. Darhaqiqat shunday. Ulug` shayxlardan biriga tasavvuf nima, deb savol berganlarida "Tasavvuf - shaytoniy nafsni yengmoq" deb javob bergan ekan. Shunday bo`lgandan keyin, turgan gap tasavvufni o`z ijodlarining bosh g`oyasiga aylantirgan ulug` xamsanavis shoirlar ham bu nafsga nisbatan salbiy munosabatda bo`lganlari aniq. Alisher Navoiy "Xayratul abror"da insonning salbiy xislatlari-mayparastlik, man-manlik. yolg`onchilik, bevafoqlik, zolimlik haqida yozar ekan, bular nafs belgilari ekanini unutmaydi. Bularning hammasi kamolot yo`lidagi

g`ovlardir. Bu haqda qanoat bobida to`xtalganda yana fikr yuritimiz, ammo bu o`rinda shuni aytmoqchimizki, Navoiy nazarida nafs insonning eng qattol dushmani, nafsini yenggan odam mardlar – so`fiylar safiga kira oladi.

Sani kim masti mag`rur aylamish andishai olam,
Ichingda nafs komin istamakdin o`zga yo`q bir g`am,
YUborma o`z boshig`a nafs sargashta bu yonglig` ham,
Desangkim, nafs rom o`lsun, riyozat aylagil kam-kam.,
Solurlar bad ligom otg`a lijom ohista-ohista. (114-bet)

Laffasiy va Po`latjon Qayyumiy tazkiralarda Rojiiy ijodi yuzasidan bergan bahosida uning ijodida Xiva vazir va amaldorlarini qattiq hajv qilgan she`rlari bor degan qayd majvjud. Ammo devonda bunday ruhdagi she`rlar “Choy” turkumidagi g`azallaridan boshqa uchramaydi. Adabiyot muzeyi qo`lyozmalar fondida 377/ II inventar raqam bilan “Rojiiy muxammaslari” deb nomlangan bayoz bor. Uning 237 betdan 240 betgacha bo`lgan sahifalarida Rojiyning “Iltijonomai Rojiiy” asari boshi yo`q, chala holda berilgan. Rojiiy munojotlari kompozitsion jihatdan muxammas shaklida bo`lganligi uchun uni muxammas deb belgilaganlar va bayoz ham “Rojiiy muxammaslari” deb atalgan. Majmuaning 240 betida Rojiyning fors tilidagi “tab`i xud”i, “dastgir” radifli muxammasi va “Iltijonomi Rojiiy” asari oralig`ida bir sahifada, 237 betda “Nasihati hikmat” nomli ulamolarni, amaldorlarni hajv qilgan she`ri berilgan. Unda shoir nomi berilmagan. A.Qayumov bu she`rni Rojiyga nisbat bergan¹. Yassaviyona hikmatlar ruhida yozilgan bu she`r haqiqatan Rojiyning she`ri. Uning ruhi va mazmuni tazkira mualliflari aytgan fikrni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, bu hikmat Rojiiy munojoti va muxammasi bilan bir sahifada joylashganligi va bayoz ham Rojiiy nomi bilan atalishi shunday deyishimizga asos beradi:

Bu takallum aytur so`z aylagin bayon,
Oxir vaqt nishoni bo`lubdur ayon.

¹ Muhammad Yusuf Rojiiy Xorazmiy. Jamoling gulshanining bulbuliman. To`plovchi, nashrga tayyorlovchi M.Berdimurotova. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – B. 15.

Dunyoda fasoyishi ko`p bo`ldi yomon,
Bilmayman, yaqinmu oxir uz –zamon.

Rojiy hikmatlari shunday boshlanadi. Navoiy asarlari lug`atida hikmat arabcha so`z bo`lib, bilimdonlik, donishmandlik, aql va haqiqatga to`g`ri keladigan nozik ma`noli qisqa so`z, masal, hikmat aytmoq –nozik ma`noli fikr bayon qilmoq deb izohlangan. Oriflar sultoni A –hmad Yassaviyda shunday misralar mavjud:

Mullo, mufti bo`lg`onlar, yolg`on da`ao qilg`onlar,
Oqni qaro qilg`onlar ul tomug`ga kirmishlar.
Qozi, imom bo`lg`onlar, nohaq da`vo qilg`onlar,
Himor yanglig` bo`lubon, yuk ostida qolmishlar.

Rojiyning hikmatlarida ham yassaviyona ruh bor va bu g`oyani shoir XIX asarda o`z davri nuqtai nazaridan rivojlantirdi:

Qozi bo`lg`on pora ola boshladi,
Xayr ishni qo`yub sharrni ushladi.
Dunyo uchun shariatni tashladi,
Bilmayman, yaqinmu oxir uz -zamon.

Mullalar etmadi ilmig`a amal,
Shariat ishini aylamay jadal.
Fe`limiz buzub-ku ayladi kasal,
Bilmayman, yaqinmu oxir uz –zamon.

“Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham hokim ruh –nasihat ruhi. Lekin shoirning deyarli barcha pandu nasihat so`zlari bitta maqsadga qaratilgan. Bu – mutlaq haqiqatni bilish, haqni sevish –chunki “haqni suygan oshiqlar yo`ldan ozib, nafsu dunyo uchun imonsotarlik qilmaydilar”.

Rojiy hikmatlarida ham nasihat ruhi hukmron:

Mufsihlar pul olib, rivoyat qilur,
Nohaq pulni olib, xalqni kuydirur.
Zamonning ishlari mundog` bo`lubdur,

Bilmayman, yaqinmu oxir uz -zamon.

Rojiy hikmatlarida davrdan ozurda qalbning iztiroblari aks etgan. Bu iztiroblar insonni “jon gavhari” bo`lgan iymonni toza saqlab qolishga da'vat etadi. Ezgu amallar qilib, abadiy dunyoga iymonni salomat olib borish -har bir musulmonning yuksak orzusi. Rojiy hikmatlarida nafaqat shunchaki nasihat, balki “Xayr ishni qo`yub, sharrni boshlagan, pora olgan qozilar”, “ilmig`a amal qilmagan mullalar”, “pul olib rivoyat qiladirg`on mufsihlar” keskin tanqid ostiga olinadi. Insonni ruhiy poklanishga, ma'naviy komillikka chorlovchi bunday hikmatlar nafaqat XIX asrda, balki bugungi mustaqillik mafkuramizni shakllantirish uchun ham juda zaruriy ehtiyojdir.

Rojiy musammatlarini kuzatar ekanmiz, shoir poetik maqsadlari yo`lida shaklni bir vosita qilib, aslida badiiy mazmundor asarlar yaratishga harakat qilgan. She'rlaridagi turli xil mavzular shoir tasavvur va tafakkur olamining ancha kengligidan darak beradi.

Shoir g`azallari faqat ishq tarannumi bo`libgina qolmasdan, o`zining didaktik, falsafiy maqsadlarini ham qamrab oladi. Ta'rixlarida esa tavsiflanayotgan sana bilan bog`liq masalalar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-siyosiy qarashlar ham aks ettirilgan.

II. ROJIY XORAZMIY SHE'RIYATINING BADIYYATI HAQIDA.

2.1. Rojiiy Xorazmiy she'rlarida faol qo'llanilgan badiiy san'atlar haqida

Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi har doim ijod ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. Har bir shoirning salohiyatini belgilashda uning nimalarni tasvirlagani emas, balki qanday tasvirlagani muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, lirik asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati barcha davrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy omillaridan biri sifatida baholanganligini unutmash kerak.

Badiiy tasvir vositalari she'riyatda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. O'zbek mumtoz adabiyotidagi estetik go'zallikni yuzaga keltirishdagi omillardan biri – she'riy san'atlardir. Ta'kidlash joizki, turli asrlarda yashab ijod etgan birorta shoir yo'qki, u o'z g'oyalarini, tasvir etgan qahramonlarining o'y-kechinmalarini, his-tuyg'ularini jozibali qilib ifodalashda bu badiiy san'atlarga murojaat etmagan bo'lsin. Mumtoz badiiyatning an'anaviy jihatlari, xususiyatlari, poetik belgilari va ular oldiga qo'yilgan talablar haqida yaratilgan bir qancha tadqiqotlar ham mavjuddir¹. Mazkur asarlar Rojiiy she'riyati badiiyatini o'rganishda ham muhim manbalar bo'lib xizmat qildi. SHubhasiz, rang-barang she'riy an'analar Rojiiy asarlari, shoir ijodining yetakchi janri bo'lgan g'azallardagi fikr, g'oya va baytlar nazokati, musiqiy va jozibador bo'lishini ta'minlashga xizmat qilgan. Har bir davrda biror bir shoir ijodiga baho berilganda, uning tanlagan mavzusi, unda qanday obrazni ifodalashi, shu mavzu va

¹ Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul balog'a», Atoulloh Husayniyning «Badoyi'u-s-sanoyi'», Hofiz Voiz Koshifiyning «Badoyi ul'-ash'or» va keyingi davr adabiyotshunoslaridan M.Shayxzodaning «G'azal mulkingning sultoni», Y.Is'hoqovning «Navoiy poetikasi» monografiyasi hamda badiiy san'atlar haqidagi turkum maqolalari, V.Rahmonovning «She'r san'atlari», B.Valixojayevning «O'zbek adabiyotshunosligi tarixi», A.Hojiahmedovning «She'r san'atlari va mumtoz qofiya», B.Boboyevning «She'r ilmi ta'limi», R.Orzibekovning «O'zbek she'riyati janrlari va poetikasi», «She'riy san'atlar tahlili» kabilar shular jumlasidandir.

g`oyani yoritishga xizmat qilgan boshqa imkoniyat va vositalar qatorida, u qo`llagan badiiy tasvir vositalarining rang-barangligi va go`zalligiga ham alohida e`tibor qaratilgan. Zotan, har qanday badiiylik, shu jumladan, she`riy san`atlar ham badiiy asar mazmuni bilan uzviy bog`liqdir, shu mazmuni ochishga xizmat qiladi.

Rojiy Xorazmiy ham o`z lirikasida oshiqona, orifona va ijtimoiy mavzularni ta`sirchan timsollar va go`zal tasvirlar orqali aks ettirdi. Shuning barobarida o`z poetik iste`dodini yorqin namoyon eta oldi. Buni uning quyidagi bir g`azali misolida ko`rishimiz mumkin:

Nechuk zebo qad-u ne nav` ruxsori dilorodur,

Sanga kim sarv ila gul hasratingda zor-u shaydodur. (45- bet)

Rojiyning ushbu matla` bilan boshlanuvchi g`azali, shubhasiz, uning ijodidagi badiiy nazokati jihatidan yuksak bo`lgan g`azallardan biridir. Bu baytda ma`shuqaning qomati, yuzi, go`zal **tashbehtar** bilan tasvirlangan. Shu bilan birga baytda **laff va nashr** san`ati ham mavjudligini ko`rish mumkin.

Jamoling nazzarig`a tilab imkoni hayot o`lg`ay,

Ko`zing qotil durur, kipriklaring o`q, qoshlaring yo dur.

Bu baytda an`anaviy **tashbihlar** yangicha bir timsolda namoyon bo`layotganligini ko`ramiz. Yor ko`zini jallodga o`xshatish uning jon olguvchi nigohlariga ishora bo`lsa, o`qdek kipriklari, kamon qoshlari ta`rifi uni yanada kuchaytirib turibdi.

Labing ayni hayoti Xizr erur davrida har xating,

Yuzungdir oftob-u har kaloming bir Masihodur.

Baytda **talmih** san`atining qo`llanishi (Xizr, Masih) uning badiiy qiimmatini oshirgan va shoir maqsadini yaqqol tasvirlab bergan. Baytda, shuningdek, **tashbih**, **tanosub** san`atlaridan ham foydalanilgan.

Yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek, mumtoz adabiyotning o`ziga xosligini, rang-barangligini, jozibadorligi va ta`sirchanligini ifodalovchi tasvir vositalari bu – badiiy san`atlardir. Fikrni badiiy ifodalashda ularning o`rni beqiyos. Buni adabiyotshunos olim Y.Is`hoqovning quyidagi «...g`azallarda shoirning his-

tuyg`ulari, nozik kechinmalari xilma-xil tashbehlar, original istioralar va avtor maqsadi, munosabatining ochilishiga imkon beruvchi ma'naviy va lafziy san'atlar o`zining go`zal va tabiiy ifodasini topgan»¹, – degan fikri ham tasdiqlaydi. Fikrni badiiy ifodalashda ko`plab san'atlar qo`llaniladi. Ular ma'naviy va lafziy san'at turlaridan iboratdir. Rojiiy ham o`z she'riyatida ularni samarali istifoda etgan.

Rojiiy lirikasida arab harflarining shakliy ko`rinishlariga o`xshatilgan tashbihlar ham uchraydi. Bunga quyidagi baytni misol qilib keltirish mumkin:

Alifdek rost qadding hasrati qaddimni **yo qilmish**,

Xayoli otashin la'lingda o`t jonimda **yoqilmish**. (61- bet)

Arab alifbosida “alif” – “ا” qaddi qomat ta'rifida qo`llaniladi. Hijron yukidan egilgan oshiq qomati esa “dol” – “د” harfiga qiyoslanadi. Bu kabi o`xshatishlarni fors adabiyotida ham, o`zbek mumtoz adabiyotida ham ko`plab uchratish mumkin. Ushbu an'anaviy tashbehlardan Rojiiy ham mohirona foydalangan.

Ushbu g`azal qofiyasida shakldosh so`zlardan (tajnisli qofiya) foydalanilgan. Birinchi misradagi qofiya “yo – ى kabi egdi” degan ma'noni anglatsa, ikkinchi misrada “o`t yoqildi” degan mazmun bor. Xuddi shu tarzda keyingi baytlar ham shakldosh qofiyalanib kelgan:

Xalos o`lg`ay nechuk jonu ko`ngil ul turk shastidin,

Alar qasding`a qoshu kiprikidin o`qu **yo qilmish**.

Emas naqshu nigor ul qotili xunxoring ilkida,

Xino rangi bila xuni shahidi ishqiy **yo qilmish**.

Birovkim poymoli ahli olam qilg`oli oning

Jabinin xomai taqdir naqshi bo`ry **yo qilmish**.

Vale Rojiiy bo`lub shokir g`ami behaddu sonig`a,

Demak, asru xatodur, qilmamish ul ishni **yo qilmish**.

Shoirning quyidagi she'rida esa,

¹ Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi («Xazoyin-ul maoniy» asosida). – Toshkent: Fan, 1983. – B. 127.

«Alif»dek qadingni xiromanda aylab,

Kirib pardayi jon aro qil vatan, kel. (78- bet)

kitobat san'ati orqali yorni muhabbat bog`ining niholiga qiyoslaydi. «Jon» (جان) «alif»ni o`z ichida avaylab, asragani kabi, oshiq ham yorni ko`ngil bustonida parvarish qiladi. Ya'ni yor oshiqning jismiga jon bag`ishlaydi.

Tanosub ma'naviy san'ati ham Rojiiy ijodida alohida o`rin tutadi. Ushbu san'at turi haqida she'rshunos Atoullloh Husayniy shunday yozadi: «Ul andoqdurkim, kalomda anga munosib hodisa va nimalarni jam' qilurlar (ammo tazod yo`li bilan emas)»¹. Shoirning quyidagi baytlarida:

Ey shah, inoyat birla boq aftodalar holig`akim,

Bo`lmish olarning sen kibi ko`p kimsa sulton ustina. (95- bet)

Yoki:

Ko`ngul asrayin der ersang xatarot kasratidin,

Tilingga sukut mehrin bosib asra borho ko`z. (53- bet)

ostiga chizilgan so`zlar mazmunan bir-biriga aloqador bo`lib, ular orqali **tanosub** san'atining go`zal namunalari yaratilgan.

Tajohilu orif ma'naviy san'at turlaridan biri sanaladi. Tajohul-ul orif shunday san'atki, «so`zlaguvchi bir nimani bilur, ammo bir nukta bila o`zni bilmagandek ko`rsatur»². Bu san'at turiga shoirning quyidagi baytlari misol bo`ladi:

Yo sharm, yo hayodin bu kim ko`zingni ko`rgoch,

Bo`lur solib quyi ko`z, ko`b beqaror nargis. (55- bet)

Yoki:

Rojiyo, chin sarv ila guldurmu yo shah aylamish

Royati lashkardin ofoq ichra barpo sarvigul. (76- bet)

¹ Husayniy A. Badoyi'u-s-sanoyi'. Forschadan Alibek Rustamov tarjimasi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. – B. 232.

² Husayniy A. Badoyi'u-s-sanoyi'. Forschadan Alibek Rustamov tarjimasi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. – B. 239.

Ma'naviy san'at turlaridan yana biri **tazoddir**. She'rda bir-biriga zid, qarama-qarshi ma'noli so'zlarni qo'llash bu san'atning asosini tashkil etadi. U mumtoz adabiyotimizda mutobaqa, tiboq, takofu, ittizod, muttazod kabi nomlar bilan ham atalib kelingan. Mumtoz asarlar tahlilida boshqa san'atlar singari tazod san'atini ham alohida kuzatmasdan biron shoirning uslubini, so'z qo'llash mahoratini belgilash qiyin. Bilamizki, u barcha Sharq mumtoz shoirlarining ijodida keng qo'llanilgan. Rojiiy ijodi ham bundan mustasno emas, albatta. Ushbu san'at namunasini shoirning quyidagi baytida ham ko'rishimiz mumkin:

Ey mango **hajr**ida bo'lg'on aql zoyil, lol hush,

Kelki ham **vasl**ingda bo'lsun aql etib badhol hush. (57- bet)

Bu baytdagi *hajr* so'zining *vasl* antonimi poetik fikrni ixchamgina ifodalab qolmasdan, matn mazmunini teranlashtirgan. Shoir she'rlarida, ba'zan ma'noli kuchaytirish maqsadida ikki yoki undan ortiq qarama-qarshi ma'noli so'zlarni birgalikda keltiradi:

Talxlig` birla o`tar ne **tun-kun**im, albatta, qil,

La'li **shirin**, xoli mushkin, mehri ruxsoring`a arz. (63- bet)

Yuqoridagi baytda ostiga chizilgan so'zlar o'zaro qarama-qarshi ma'noli bo'lib **tazod** san'atini hosil qilgan. Ushbu baytda tashbeh san'ati (*la'li shirin, xoli mushkin, mehri ruxsor*) ham ifodalangan.

Takror – ayrim so'z va iboralarning, ba'zan misralar yoki bir necha misralarning muayyan bir tartib asosida qayta-qayta qo'llanilishidir. Takrorlar badiiy nutqning ifodaviyligi va ta'sirchanligini oshiradi, asar g'oyasini bo'rttiribroq ifodalaydi, o'quvchiga kuchli hissiy ta'sir etadi.

She'r ilmi ta'limi bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib brogan adabiyotshunos olim T.Boboyev fikricha, "*takrorlar, shubhasiz, tilning aniq obrazli vositalari bilan uzviy bog'liq holda kelgandagina o'z g'oyaviy-badiiy vazifasini o'tay oladi*"¹.

¹ Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1996. – B. 280.

Badiiy takrorlar g'oyatda xilma-xil bo'ladi. Masalan, anaphora, epifora, assonans, konsonans, pleonizm, tautologiya, radif, refren, naqarot, simploka, polifon va hokazolar¹.

Biz quyida Rojiiy dahosi tomonidan mahorat bilan qo'llanilgan ayrim takrorlarga to'xtalib o'tamiz.

Anafora – badiiy takrorning qat'iy tizimli ko'rinishlaridan biri bo'lib, she'r yoki banddagi misralarning boshidagi so'z yoki so'z birikmalarining boshqa misralar boshida aynan takrorlanib kelishidir.

Har yuzga vola etma dili beqarorimi,

Har ko'y boshinda solmay ravzai e'zorimi,

Har yo'l g'ubori etma tani xokisorimi,

Bir yo'lda sobit et qadami e'tiborimi,

Kim, rahbari shariat o'la muqtado bango. (121- bet)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qat'iy qonuniyat asosida (misralarning boshida va aynan) takrorlanib kelmoqda. Shu sababli "har" so'zi anafora vazifasini o'tamoqda. Bu holatni boshqa o'rinlarda asarlarida ham kuzatamiz:

Kel, ey sanam, necha dardingni jong'a yetkurayin,

Necha fig'onim unin kahkashong'a yetkurayin,

Necha el ichra fasonam bayong'a yetkurayin,

Necha g'amim o'tin ahli jahong'a yetkurayin,

Sharor-u dudin aning osmong'a yetkurayin. (111- bet)

Misralarda takror sifatida "necha" so'zining keltirish orqali she'rdagi poetik fikrni – oshiqning yor ko'yida chekayotgan hijron azoblari kabi holatlarni bo'rttirib, ta'kidlab ko'rsatmoqda.

Radif² – (arabcha رديف – mingashuvchi, ergashuvchi, izma-iz keluvchi) mumtoz she'riyatda qofiyadan keyin aynan takrorlanuvchi so'z yoki so'z birikmasidir. Radiflar she'rning ohangdorligi, musiqiyiligini ta'minlash bilan birga,

¹ Ko'rsatilgan manba.

² Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2010. – B. 192.

asarda ilgari surilayotgan muayyan fikrni ta'kidlash, she'rxon diqqatini o'sha g'oyaga qaratish maqsadiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Birovki tole' o`lub ongo rom men yanglig`,

O`ziga dayr aro qilmish maqom men yanglig`,

Ichar mudom mayi la'lfom men yanglig`,

Bil ani dayrda masti mudom men yanglig`,

Ki, may gadolig` etar subhi shom men yanglig`. (101- bet)

Radif vositasida musiqiy ohang yaratish mumtoz adabiyotda rag`batli hodisa sanalgan.

Hojib – (arabcha **حاجب** – eshikbon, pardador) she'r misralarida qofiyadan oldin aynan takrorlanib keluvchi so`zdir. Hojib bir yoki bir necha so`zdan iborat bo`lishi mumkin.

Ul parikim, barcha bo`lmish oshnolar yot anga,

Yotlarg`a oshno bo`lmish nedur holot anga. (24- bet)

Ogahiy ba'zi o`rinlarda o`z shoirlik mahoratining yanadan yorqin namoyon qilgani holda ham hojib, ham radifdan foydalangan.

Ey mango hajrida bo`lg`on aql zoyil, lol hush,

Kelki ham vaslingda bo`lsun aql etib badhol hush. (57- bet)

Baytdagi “aql” – “aql” so`zlari hojib, “hush” – “hush” so`zlari esa radifdir.

Tavtologiya – (grekcha *tauto* – so`zidan olingan bo`lib, u aynan *logos* – so`z ma'nosini anglatadi) aynan bir fikrni, mazmuni boshqa so`z yoki so`zlar vositasida takroran, ortiqcha ishlatish, so`zni ortiqcha takrorlash.

Nigoro, dilsitono, yig`laram ayb etmakim, naylay,

Chida olmay firoqing ranjig`a, nochor yig`larmen. (88- bet)

Badiiy matnda tavitologiya muallifning muayyan g`oyaviy-badiiy niyatini amalga oshiruvchi vosita vazifasida qo`llanishi mumkin: nasriy asarlarda qahramonning emotsional holatini ta'kidlash niyatida dialog va monologda, she'riyatda biror fikrni, narsa-hodisa, tushunchani ta'kidlash maqsadida ishlatiladi.

Bunday o`rinda u mantiqiy g`alozlik natijasi hisoblanmay, uslubiy vosita vazifasini bajaradi.

She`r kitobxonda estetik zavq uyg`otishi uchun u, dastlab, ehtiros bilan yozilgan bo`lishi kerak. Shundagina uning hissiy ta`sir kuchi bo`ladi. She`rning ta`sirchanligi esa vazn, ritm, qofiya, poetik figuralar, badiiy san`atlar bilan birga poetik (she`riy) fonetikaga ham bog`liq bo`ladi.

She`rni fonetik jihatdan puxta ishlash, xususan, aruzda katta ahamiyatga ega. Chunki aruzda hijolarning sifati (hijolardagi nutq tovushlarining hamohangligi, qisqa-cho`ziqligi) g`oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada o`zbek she`riyati vaznlari tadriji bilan maxsus shug`ullangan she`rshunos olim Ummat To`ychiyev shunday yozadi: *“Fonetik jihatdan yaxshi ishlangan she`rda kishi sezgisiga ta`sir etuvchi ohang va musiqiylik kuchli bo`ladi, ammo bu ohang hamda musiqiylik she`r ritmi va nutq tovushlarining kompleksidan, ma`lum so`zlar birikmasi va nutq bo`laklari aloqasidan kelib chiqadi”*¹.

Qofiya va poetik sintaksis qonuniyatlari poetik fonika hodisasini yuzaga chiqaradi. Poetik fonika misra va satrlarda bir xil nutq tovushlarining takrorini hamda ularning estetik-emotsional vazifasini tekshirish bilan shug`ullanadi.

Nutq tovushlarining evfoniyasi, ya`ni ohangdosh va ohangdorligi asarda shunchalik zarurki, u tufayli ritm izchillashadi, poetik fikr o`ziga xos yoqimli holatni kasb etadi, hissiy ta`sir kuchini oshiradi. Nutq tovushlarining takrori orqali so`zlar ohangdoshligi, so`zlar ohangdoshligi orqali esa misralar ohangdoshligi hosil bo`ladi. Oxir-oqibatda ohangdoshlik zaruriy musiqiylikni yuzaga keltiradi.

Mumtoz she`riyatda ham lirikaning tovush tomoniga alohida e`tibor qaratilgan. Bu holatni she`rning musiqiylik tomoniga e`tibor qaratish bilan dalillash mumkin. Xususan, o`zbek mumtoz adabiyotining ko`zga ko`ringan daho shoirlaridan hisoblanmish Rojij ijodida ham bu holatni kuzatishimiz mumkin.

Poetik fonikaning unsurlari ko`p va ancha murakkabdir. Ular sirasiga misol qilib, alliteratsiya, assonans, dissonans, monorim kabilarni keltirish mumkin.

¹ To`ychiyev U. O`zbek sovet poeziyasida barmoq sistemasi. – Toshkent, 1966. – B. 173.

Alliteratsiya – she’riy nutqda, qisman, nasriy asarlarda bir xil tovushlar takroriga asoslangan fonetik-stilistik usul¹. Alliteratsiya mumtoz adabiyotda **tavze’** nomi bilan ham yuritiladi.

Alliteratsiya she’riy asarlarning ohangdorligini ta’minlaydi, ma’lum bir tovushlar takrori orqali o’ziga xos ritm hosil qilingan.

***B**oqmang visol **b**azmida ishq ahli sham’g`a kim,
Ul **b**azm ichida **b**o`lg`usi zeb**a**nda oft**b**. (27- bet)*

Ba’zan ham unli, ham undosh aralash holda alliteratsiya usulida keltirilgan baytlar ham uchraydi:

***G**ul-gul **o**chib uz**o**ring, qil sayri **b**og` **g**ah-g**ah**,
Tor-t**o**r qu**d**uming istar, ko`b **x**or-x**o**r nargis. (55- bet)*

Musalsal (arabcha **مسلسل** – zanjirsimon, ya’ni halqa-halqa qilib ulash) – she’r band(bayt)larini badiiy takror vositasida bir-biriga halqa-halqa bog`lash usuli. Bu usul hozirgi she’rshunoslikda uchma-uch ulash (**stik** yoxud **simploka**) deb yuritiladi².

Bu san’atning o’ziga xosligi shundaki, she’r bandi(bayti)ning so`nggi so`zi navbatdagi bandi(bayti)ning ilk so`zi o`rnida aynan takror bo`lib keladi. Bu usul kichik she’riy janrdagi asarlarda ham, yirik hajmli epik asarlarda ham ishlatiladi.

*Yosh to`kib jo`lidamu har kecha tortar o`tlug` oh,
Ko`yi biro y ishqida mendek durur devona **sham`**.*

***Sham`** uchun tashvish chekmang, do`stlar, kim bu kecha,
Topti ul mahvash jamolidin bizing koshona sham`. (67- bet)*

Tovushlar takrori, turli fonetik usullar o`quvchilar diqqatini tortadi va uni muhim bir narsaga qaratadi, she’riy nutqni ifodali qiladi. Shu sababli shoir she’rning tovush tomoniga ham alohida e’tibor beradi, she’r ohangi

¹ Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so`zligi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. – B. 22.

² Boboyev T. She’r ilmi ta’limi. – Toshkent: O`qituvchi, 1996. – B. 287.

tinglovchida jo`shqin his-tuyg`u uyg`otish uchun maxsus fonetik usullar qo`llaydi, she`rni har xil fonetik vositalar orqali “pardozlaydi”.

Demak, she`rni fonetik jihatdan ishlash ehtiyoji mazmunni jozibali ifodalash zaruratidan kelib chiqadi. Buni teran anglagan Ogahiy, xoh u tarixiy asarda keltirilgan she`ri bo`lsin, xoh u maxsus tuzilgan devoniga kiritilgan bo`lsin, o`ziga xos tarzda tovushlar uyg`unligini saqlagan holda she`rlar yaratganki, bu, birinchidan, she`rning ta`sirchanlik kuchini oshirsa, ikkinchidan, uning musiqiylikini rivojlantirgan.

2.2. Rojij lirikasi vazni haqida.

O`zbek mumtoz adabiyotidagi lirik asarlarning deyarli barchasi arab she`riyati orqali o`tgan aruz bahrlari, vaznlarida yozilganligi barchamizga ma`lum. Aruz bizda milliy she`riyatimiz tabiatiga moslashtirilgan holda qo`llanila borilganligini aruzshunos olimlarimiz ham qayd etadilar. Aruz turkiy-o`zbek she`riyatining muhim poetik belgilaridan biri sanaladi. She`riy asardagi so`zlarni tartibga solishda, unda ritmik holatlarni yuzaga keltirishda aruz ruknlarining, qofiya va radiflarning o`rni kattadir. Bularsiz she`riy asarning bo`lishi mumkin emas. Xususan, g`azalnavislikda aruz asosiy omillardan sanaladi.

Rojij devoniga kiritilgan she`rlarning vazn xususiyatlariga to`xtaladigan bo`lsak, uning aruz amaliyotini puxta egallaganiga guvoh bo`lamiz. Rojij turkiy aruzning nozik, o`ziga xos jihatlaridan mahorat bilan foydalanib, betakror she`rlar yarata olganligi bilan ham o`zbek adabiyotida alohida o`rin tutadi.

Aruz vazni shoirdan yuksak mahorat, so`z boyligi hamda badiiy salohiyatni, shuningdek, asarning g`oya va mazmuniga mutanosib shaklni tanlay bilishni ham taqozo etadi. Rojij devonida mavjud she`rlar aruz vaznining, asosan, 6 ta (hazaj, rajaz, ramal, mutaqorib, muzori`, mujtass) bahrida yozilgan. Tekshiruvlarimiz natijasida shoir ijodida *hazaj* bahrida yozilgan she`rlar yetakchi o`rin egallashi ma`lum bo`ldi. Hazaj bahri «*mafoiylun*» aslining takrorlanishidan vujudga keladi.

Ushbu bahr mumtoz she'riyatimizda XIV asrdan boshlab munosib o`rin egallay boshlagan bo`lsa, XVI va XX asrlarda ham undan keng foydalanildi. Buning asosiy sabablaridan biri hazaj bahri o`z xususiyatlariga ko`ra mumtoz va xalq kuylariga mos tushishidadir. Shu bilan birga, mazkur bahrda kechinmalarni, tuyg`ularni, ruhiy holatlarni ifodalash qulayligidir. Bunga shoirning quyidagi *hazaji musammani solim* vaznida yozilgan baytini misol qilish mumkin:

A-lif-dek-ros/ t- qad-ding- has/ra-ti- qad-dim/ni- yo- qil-mish,

v - - - / v - - - / v - - - / v - - -

Xa-yo-li o/ta-shin- la'-ling/da- o`t- jo-nim/da- yo-qil-mish. (61- bet)

v - - - / v - - - / v - - - / v - - -

mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun

She'riyatimizda bu bahrning, asosan, sakkiz va olti ruknli vaznlari qo`llanadi. Rojiiy o`z ijodida bu bahrdan ancha samarali foydalangan. Shoir devoniga kiritilgan she'rlarning aksariyati aynan shu vaznning hazaji musammani axtam, muzori` musammani axrab, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf, hazaji musammani makfufi ajabb, mujtassi musammani mahzuf, hazaji musaddasi mahzuf; rajaz bahrining rajazi musammani maqsur, rajazi musammani matviyi maxbun; ramal bahrining ramali musammani mahzuf, ramali musammani maqsur, ramali musaddasi maqsur kabi turli tarmoqlarida yozilgan.

Ramali musammani maqsur:

O-h -kim, um/r o`t-ti,- top-may/ ran-ju- kul-fat/din- fa-roq`,

- v - - / - v - - / - v - - / - v ~

Ber-ma-di- dav/ro-ni- dun- bir/ lah-za- meh-nat/din- fa-roq`. (70- bet)

- v - - / - v - - / - v - - / - v ~

Foilotun, foilotun, foilotun, foilon.

Ramali musaddasi maqsur:

Vah-ki,- o`l-tir/di- me-ni- ran/ji- fi-roq,

So-li-bon (ul)/ bar-cha- i-nim/din- yi-roq. (73- bet)

- v - - / - v - - / - v ~

Foilotun, foilotun, foilon.

Ramali musammani mahzuf:

Ne-cha- kun-dir/ oy-ri-lib-men/ bir- qu-yosh- rux/so-r-din,

Tiy-ra- bo`l-mish/dur- ko`-zum-g`a/ sub-h- sho-mi/ to-r-din. (85- bet)

– v – – / – v – – / – v – – / – v –

Foilotun, foilotun, foilotun, foilon.

Rajazi musammani solim:

Shak-kar- la-bi,/ shi-rin- za-bon,/ siy-min- ba-dan,/ no-zuk- mi-yon,

An-vo-ri- ruh,/ nas-ri-ni- tan,/ mush-kin- xa-tu,/ xo-mush- za-bon. (98- bet)

– – v – / – – v – / – – v – / – – v –

Mustaf`ilun, mustaf`ilun, mustaf`ilun, mustaf`ilun

Rojiy g`azallari tahlili uning aruz vaznini chuqur o`zlashtirganidan darak beradi. Aruzning hazaj, ramal, rajaz, muzori`, mujtass bahrlari va ularning tarmoqlari, guvoh bo`lganimizdek, shoir she`rlari uchun xosdir.

Mustazod vazni ohangi qo`shiqning tayyor kuyidir. Mumtoz adabiyotimizdagi birorta boshqa janr mustazodchalik musiqiy ohangdor emas. Mustazod o`zining oshiqona mazmuni bilan ham qo`shiqqa mosdir.

Ey- kip-ri/ki- o`q,- qosh-la/ri- yo,- g`am-za/si- jal-lod,

ey- ko`z-la/ri- jo-du,

Bir- lut-f i/la- qil-sang- ne/du-rur- xo-ti/ri-mi- shod,

chek-dim- ba/se- qay-g`u. (99- bet)

– – v / v – – v / v – – v / v – ~

– – v / v – –

maf`ulu, mafoiylu, mafoiylu, mafoiyl,

maf`ulu, faulun

Ushbu mustazod an`anaviy *hazaji mutatavvili axrabi maqbuzi maqbuzi maqsur, axrabi mahzuf* bahrida yozilgan.

Rojiy tom ma`nodagi mahoratli shoir sifatida o`z asarlarining badiiyligiga, yoqimli, o`qishli chiqishiga katta e`tibor berdi, lirikada go`zal asarlar yaratdi. U

she'riy san'atlar, bo'yoqlar ishlatishda ham xalqchil yo'l tutdi. Uning asarlari mumtoz poetikaga xos bo'lgan turli usul va san'atlarga juda boy. Rojiiy badiiy san'atlarni qunt bilan egalladi va ularning ko'pchiligini o'zining g'azallarida mahorat bilan qo'lladi. Uning she'riyatida vazn, qofiya va badiiy vositalar shu darajada noziklik va mahorat bilan qo'llanilganki, bu uning yuksak iste'dodini yaqqol namoyon etadi.

U XIX asr lirikasida aruz vaznining imkoniyatlarini to'lig'icha ishga solgan va uning ohangdorligini hamda rang-barang poetik buyoqlarini asarlariga ko'chira olgan shoir sifatida adabiyotimiz tarixida yangi sahifa ochdi. Rojiiy hazaj vaznining turli-tuman ko'rinishlarini yaxlit bir asarda qo'llab, uning erkinroq harakatini yaratishga intilgan. Jumladan, satrlarning o'ynoqiligini, bir-biriga urilib ohangdor tebranish hosil qilishini ta'minlashga uringan.

Rojiiy qofiyaning ham turli-tuman shakllaridan unumli foydalanishga astoydil qo'l urgan. Shu bilan birga, u o'z asarlarining musiqiy kompozitsiyasiga katta e'tibor qaratgan.

Rojiiy mumtoz she'riyatimizda keng qo'llanilgan mujarrad qofiyadan tashqari, murdaf, musajja' qofiyalarga ham murojaat qiladi. Aniqrog'i, ulardan o'z maqsadini amalga oshirishni, ya'ni asarlaridagi poetik yo'nalishni mustahkamlash uchun keng ko'lamda foydalangan. Uning poetik yo'nalishini tashbeh va istiora san'atlarining uyg'unlashuvi, deb baholasa bo'ladi.

Albatta, Rojiiy o'z ijodini badiiy san'atlar bilan bezashni ham diqqatidan qochirmagan. Tanosub, talmih, tajohuli orif, husni ta'lil, iyhom, ruju', tazod kabi usullar Rojiiy ijodida shunday bir latofat kasb etadiki, ko'z orqali qabul qilingan asar qalb ko'zgisida jilolanib ta'sirchan, mazmundor va o'z musiqasi, ranglari mavjud asarga aylanadi. Rojiiyning poetik san'atlarga munosabati uning estetik qarashlariga asoslanadi. Har bir she'riy san'at turi asarda shunchaki aks ettirilmaydi. Aksincha, har biri ma'lum «yuk»ni ko'taradi, shoirning maqsadini ruyobga chiqarishga xizmat qiladi.

Rojiyning she'rlari ma'lum bir qolip chegarasidagi hodisa emas. Shakl Rojiy uchun birlamchi xususiyat kasb etmaydi. U ma'noni tasvirga, tasvirni ma'noga mantiq zanjiri bilan ulash tarafdori. Ammo bu zanjir asarning ohangi ostida ko'zga tashlanmasligi kerak. Ana shu hodisa Rojiyning ijodiy originalligi, uning yangicha yondashuvi natijasidir.

Demak, Rojiy vazn tanlashda ham, qofiya turlarini belgilab olishda ham, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda ham o'z maqsad va vazifalari doirasidan chetga chiqmagan. Shuning o'ziyiq Rojiy iste'dodi naqadar yorqinligidan dalolat beradi.

XULOSA

Rojiy hayoti va ijodining o`rganilishi mumtoz adabiyotimiz tarixidagi yana bir bo`shliqni to`ldiradi. U o`zigacha bo`lgan mumtoz adabiyotning ma`naviy va badiiy boyligidan ta`sirlanib, o`zlashtirishga hamda ularni ijodiy yangilashga erishdi.

Xiva adabiy muhiti vakillari o`zbek adabiyotining barhayot an`analarini muvaffaqiyatli davom ettirdi va yangicha munosabatlar zamirida rivojlantirdi. Har biri iste`dodi darajasida mumtoz she`riyat xazinasini yangi usullar, tashbihu timsollar bilan boyitdi. Xususan, Rojiyning adabiy an`analarga bo`lgan munosabati uning izchil qonuniyligiga asoslanadi.

Rojiy she`riyati ham mumtoz adabiyotimizning betakror sahifalarini tashkil etadi. Bu holatni uning ustozlar g`azallariga yozgan nazirasifat hamda tazmin g`azal va muxammaslarida ham yaqqol ko`rish mumkin. U o`z lirikasida hissiy tahlilga e`tibor qaratdi. An`analardagi mavjud peyzaj tasvirlari orqali kechinmalarini falsafiyLashtirish, ijtimoiylashtirishga erishdi. Buyuk shoirlar – Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Amiriylar ijodlaridan oziqlandi, ulardan o`rgandi. Biroq shoir o`z salafLari ta`sirida, ya`ni an`ana qobig`idagina qolib ketmadi, ulkan iste`dod sohibi sifatida badiiy barkamol asarlar yaratishga erishdi. Demak, u adabiy an`analarni ijodiy rivojlantirgan, she`rlarida o`ziga xos ma`no va mazmuni ifodalagan, ayni paytda original badiiy asarlar yarata olgan shoirdir.

Rojiy o`z adabiy merosini to`plab devon tartib berdi. Shoir devonida g`azal, mustazod, muxammas, musaddas, qasida, nasihati hikmat, ta`rix janrlariga xos she`rlar kiritilgan bo`lsa-da, g`azalnavislik va muxammaschilik uning ijodida asosiy o`rinni egalladi.

Rojiy ta`rix va qasidalarini yaratishda maddoh shoirlar singari bir yoqlamalikka berilmagan. O`zining muhim estetik qarashlari, falsafiy fikrlari, ijtimoiy-siyosiy yondashuvLari bu she`rlarida o`z aksini topgan.

Umuman, shoirning gʻazal, mustazod, taʼrix va qasidalarini kuzatar ekanmiz, ularda oʻziga xos originallik, mavzular betakrorligi, maqsad ulugʻvorligi koʻzga tashlanadi. Oʻquvchi kitobxon shoir dardini his qilgan holda mutolaaga kirishadi, bu jarayonda ijodkor biror soniya boʻlsin, tinglovchini zeriktirib qoʻymaydi.

Shoir gʻazallari faqat ishq tarannumi boʻlibgina qolmasdan, oʻzining didaktik, falsafiy maqsadlarini ham qamrab oladi. Taʼrixlarida esa tavsiflanayotgan sana bilan bogʻliq masalalar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-siyosiy qarashlar ham aks ettirilgan.

Shoir devonida gʻazal janriga oid sheʼrlardan soʻng salmoq jihatidan uning muxammaslari turadi. Rojiiy qalamiga mansub 36 ta muxammasning 6 tasi oʻz qalamiga mansub boʻlsa (ikkitasi fors-tojik tilida), qolganlari Navoiy (14 ta), Fuzuliy (6 ta), Ogahiy (2 ta), Amiriy (1 ta), Komil Xorazmiy (1 ta), Sharif (1 ta, fors-tojik tilida), Hoziq (1 ta, fors-tojik tilida), Husayniy (2 ta), Mulla Vaysniyoz Ziyrak (2 ta) gʻazallariga bogʻlangan muxammaslardir. Maʼlumki, oʻzbek mumtoz sheʼriyatida tazmin muxammaslar ustoz shoirdan tajriba oʻrganish, kuch sinash, oʻz misra va baytlarini ustoz misra va baytlari mezonida turib baholash, adabiy taʼlim olish, shu asnoda oʻz ijodiy imkoniyatlarini sinovdan oʻtkazish vositasi boʻlib kelgan.

Rojiiy devonidagi sheʼrlar ijtimoiy, diniy-tasavvufiy, pand-nasihat, axloqiy-taʼlimiy va ishqiy mavzularda yozilgan. U oʻz sheʼrlarida inson shaʼnini ulugʻlashga, Yaratuvchiga itoat etishga, qanoatli, rostgoʻy va kamtar boʻlishga daʼvat etadi. Dilozorlik, kibru havo, tamaʼ kabi illatlardan yiroq boʻlishga undaydi. Devondan joy olgan hamd, naʼt va munojotlar tahlilidan maʼlum boʻlganidek, shoir oʻzining dunyoviy hayoti va oxiratining asosiy mazmun-mohiyati sifatida yagona Yaratguvchini eʼtirof etadi. U bundan boshqa eʼtiqod manbaini tasavvur qila olmaydi, mukammal iymonni taʼriflaydi.

Rojiy o`z she`rlarida majoziy va haqiqiy ishqni baravar tarannum etgan. Biroq, tadqiqotimiz natijalariga tayangan holda aytadigan bo`lsak, shoir g`azallarida ishq haqiqatning ustunligi sezilib turadi.

Rojiy she`rlarini uning devonlaridan tashqari shu davrda yaratilgan ko`plab bayozlarda ham uchratish mumkin. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, shoirning bayozlar tarkibida uchrovchi ayrim she`rlari uning devoniga kiritilmagan.

Rojiy poetikasida an`naviylik va o`ziga xoslik aks etgan va Sharq mumtoz badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalangan hamda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshidagi mumtoz badiiyatning go`zal namunalarini yarata olgan ijodkordir. Shu bilan birga, she`riyatida vazn, qofiya va badiiy vositalarni shu darajada noziklik va mahorat bilan qo`llaganki, bu uning yuksak iste`dodini yanada yaqqol namoyon etadi.

Demak, Rojiy vazn tanlashda ham, qofiya turlarini belgilab olishda ham, badiiy tasvir vositalaridan ham o`z maqsad va vazifalari doirasidan chetga chiqmadi. Shuning o`ziyoq Rojiy iste`dodi naqadar yorqinligini ko`rsatadi.

Iste`dodli zullisonayn shoir sifatida Rojiy fors-tojik tilida ham o`z mahoratini sinab ko`rgan holda muxammaslar bitdi. Bu bilan u fors-tojik tilida ham yuksak darajada ijod qila olish qobiliyatini namoyon qildi. Shu tarzda Rojiy o`z muxammaslariga asos qilib olingan g`azallardagi ma`no va tuyg`ularni rivojlantirishga, ulardagi obraz va tasvirlarga mos obraz va tasvirlar topib ichki garmoniyani, uyg`unlikni ta`minlashga erisha oldi. Bu esa g`azalga tazmin muxammas bog`lashdagi asosiy mezondir. Shoir o`z ijodi davomida shu mezonga to`la amal qildi.

Umuman, shoir muxammaslarida orifona g`oyalar bilan birga ijtimoiy, olam va odam haqidagi teran falsafiy g`oyalar ham o`z ifodasini topgan. Muxammaslarning qofiya radiflari, nomlanishlari kimning qanday mazmun uslubdagi g`azalini beshlamalarga aylantirganligidan ravshan sezilib turibdiki, u oshiqona, orifona, ijtimoiy–falsafiy, ta`limiy mavzularda muxammaslar yozishga,

shunday mavzudagi g`azallarni o`z tazmin muxammaslari uchun ilhom tayanch qilib olishga e`tibor bergan. Shu ma`noda uni mumtoz she`riyatimizdagi muxammasnavislik taraqqiyotida ham alohida rol o`ynagan ijodkor sifatida qayd qilishimiz lozim. Rojinyning har bir mustaqil yoxud tazmin muxammasi mavzu, g`oya va badiiylik birligida alohida–alohida tahlil etishga loyiqdir.

Rojiy o`zidan salmoqli badiiy-ma`naviy meros qoldirdi. Uning betakror, hayotbaxsh she`rlari milliy ma`naviyatimiz xazinasiga o`ziga xos munosib hissa bo`lib qo`shildi. U o`z asarlari orqali xalqni adolatli bo`lishga, o`zaro mehr oqibatga, halollikka, gunoh-ma`siyatlardan poklanishga, turfa ig`vo-yu bo`xtonlardan uzoqlashishga, molu davlatga havolanmaslikka, kibr-u yolg`ondan yiroqlashishga chaqirgan. Bu kabi o`gitlar barkamol avlod tarbiyasida muhim manba bo`lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy–ijtimoiy mavzudagi adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 3.
2. Karimov I.A. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 1997 yil 21 oktyabr.
3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 160 b.

II. Adabiy manbalar

4. Komil. Devon. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at, 1975. – B.30.
5. Rojiiy. Devon. № 1271. 36 b.
6. Muhammad Yusuf Rojiiy Xorazmiy. Jamoling gulshanining bulbuliman. Tanlangan asarlar. To‘plovchi, nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, izoh va lug‘atlar muallifi M.Berdimurodova. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 175 b.

III. Ilmiy tadqiqot, monografiya va risolalar

7. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 345 b.
8. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XVI-XIX asr I yarmi) – Toshkent: Fan, 2009. – 247 b.
9. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I-IV jildlar. – Toshkent: Fan, 1983-1985. I jild, 1983. – 656 b.; II jild, 1983. – 643 b.; III jild, 1984. – 624 b.; IV jild, 1985. – 636 b.
10. Ayyomiy. O‘t chaqnagan satrlar. – T.: Adabiyot va san‘at, 1983. – B. 67.
11. E‘tiqod saboqlari turkumidan. Avliyolar sultoni. Turonlik Valiylar. – T.: Yangi asr avlodi. 2004. – B.100.
12. Zohidov V. O‘zbek adabiyoti tarixidan. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1961. – 264 b.

13. Yoʻldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat boshqaruvi. – Toshkent: OʻzFAN, 1957. – 363 b.
14. Karimov Gʻ.K. Oʻzbek adabiyoti tarixi, 3-kitob. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1966. – 306 b.
15. Karomatov H. Qurʻon va oʻzbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1993. – 96 b.
16. Majidov R. Ogahiy lirikasi. – Toshkent: OʻzFAN, 1963. – 137 b.
17. Matnazar Abdulhakim. Mangulik jamoli. – Xiva: Xorazm Maʼmun akademiyasi nashriyoti, 2009. – 287 b.
18. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. – Toshkent: OʻzFAN, 1961. – 172 b.
19. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2002. – 191 b.
20. Muhammad Rizo Erniyozbek oʻgʻli Ogahiy. Shohidu - I - iqbol. Nashrga tayyorlovchi, soʻzboshi va izohlar muallifi N.Shodmonov. – Toshkent: Muharrir, 2009. – 335 b.
21. Muhammad Amin oʻgʻli Laffasiy. Xeva shoirlari. 1948. – B.17-18.
22. Moʻminova V. Oʻzbek demokratik adabiyotida lirika. – T.: Fan, 1979. – B.81.
23. Nisoriy Hasanxoʻja. Muzakkiri ahhob. Fors tilidan tarjimon va izohlar muallifi Ismoil Bekjon. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 343 b.
24. Nusratulla Jumaxoʻja, Adizova Iqboloy. Soʻzdin baqoliroq yodgor yoʻq. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1995. – 149 b.
25. Ogahiy abadiyati. Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti, Xorazm Maʼmun akademiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1999. – 152 b.
26. Sarimsoqov B. Oʻzbek adabiyotida sajʼ. – T.: Fan, 1978. – 162 b.
27. Sulʼtonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980. – 392 b.
28. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Sharq, 2002. – 256 b.

29. Xudoyberganov K. Xiva xonlari tarixidan. – Urganch: Xorazm, 2008. – 192 b.
30. Sharq mumtoz poetikasi. H.Boltaboyev talqinida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 424 b.
31. O‘zbek adabiyoti. To‘rt jildlik. 4-tom, 1-kitob. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1959. – 550 b.
32. O‘zbek adabiyoti, II tom. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1959. – 651 b.
33. O‘zbek tilidagi arabcha va forscha so‘zlar lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 104 b.
34. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-tom. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2006. – 680 b.
35. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-tom. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2006. – 688 b.
36. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-tom. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2008. – 602 b.
37. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-tom. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2008. – 592 b.
38. Qobulov N. Xorazm adabiy muhiti. – Urganch: Xorazm, 1992. – 104 b.
39. G‘anixo‘jayev F. Ogahiy asarlari tavsifi. – Toshkent: Fan, 1986. – 125 b.
40. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007. – 224 b.
41. Hojiahmedov A. Maktabda o‘rganiladigan mumtoz she‘riyatning vazn ko‘rsatkichlari. – Toshkent: Sharq, 2001. – 64 b.
42. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 1998. – 224 b.
43. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999. – 240 b.
44. Hojiahmedov A. Ogahiy dahosining olmos qirralari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999. – 175 b.
45. Hojiahmedov A. Navoiy aruzi nafosati. – Toshkent: Fan, 2006. – 286 b.
46. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. – Toshkent: Sharq, 2004. – 205 b.

IV. Badiiy adabiyotlar

47.Firdavs ul-iqbol. Nashrga tayyorlovchilar: N.Jumaxo‘ja, S.Ro‘zimboyev, A.Ahmedov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 384 b.

48.Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Shohidu-l-iqbol. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi N.Shodmonov. – Toshkent: Muharrir, 2009. – 335 b.